

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI
FARG'ONA DAVLAT UNIVERSITETI

**FarDU.
ILMIY
XABARLAR**

1995-yildan nashr etiladi
Yilda 6 marta chiqadi

5-2024

**НАУЧНЫЙ
ВЕСТНИК.
ФерГУ**

Издаётся с 1995 года
Выходит 6 раз в год

A.V.Maxmudov, O.S.Abduraimov, V.Maxmudov, A.L.Allamurotov, B.J.Mavlanov, O.T.Mamatqosimov	
O'zbekistonda <i>Hordeum Bulbosum</i> L. ning hosildorlik ko'satkichlari	137
M.U.Mahmudov, I.I.Zokirov	
<i>Eurydema</i> Laporte, 1833 (Hemiptera: Pentatomidae) avlodining mavsumiy rivojlanishi va ozuqa o'simliklariga ixtisoslashuvi	148
A.V.Maxmudov, O.S.Abduraimov, V.Maxmudov, A.L.Allamurotov	
Navoiy viloyati Konimex tumanida <i>Ferula varia</i> (Schrenk) Trautv. ning tabiiy resurslari	153
M.X.Akbarova	
Farg'ona vodiysi florasida tarqalgan <i>Scutellaria</i> turkumi turlarining areal tiplari tahlili	166
X.S.Umurzaqova, G.M.Zokirova	
<i>Euzophera Bigella</i> Zeller, 1848 (Lepidoptera, Pyralidae) turining morfobiologiyasi.....	172
E.A.Ergashev	
Osh tuzining turli konsentratsiyali eritmalarida kristallanish tuzilishi va ularning buyrak toshi shakllanishidagi ahamiyati	178
S.Q.Kimyonazarov	
Markaziy Farg'ona mevali bog'larida uchrovchi barg o'ralar (Lepidoptera: Tortricidae) haqida	183
E.A.Ergashev	
So'lak tomchilarining kristallanish zonalarida morfologik elementlar va faza o'zgarishlarining shakllanishi	188

GEOGRAFIYA

Y.I.Ahmadaliyev, A.F.Raxmatov	
Surxondaryo viloyatini lanshaft turlariga ajratish va uning qishloq xo'jaligidagi ahamiyati.....	193
Sh.Z.Jumaxanov, A.M.Toshpo'latov	
Farg'ona mintaqasi: iqtisodiy va ijtimoiy geografik tadqiqotlar	198
J.A.Namozov, M.M.Mirislomov	
Jahonda ekologik turizm riovjanishining regional tahlili	210
I.K.Aripov	
Sirdaryo viloyatidagi botqoqlangan aholi punktlari	216

ILMIY AXBOROT

I.Adashev	
Bo'lajak pedagoglarda informatsion-analitik kompetentlikni rivojlantirishning pedagogik-psixologik xususiyatlari	222
Z.A.Ergasheva	
Ijtimoiy va huquqiy tarbiya uyg'unlashuvining ijtimoiy-falsafiy nazariyalari tahlili	228
I.Adashev	
Informatsion va analitik kompetentlikni integratsiyalash asosida rivojlantirishning ahamiyati.....	232
V.A.Giyosova	
Murojaatning sotsiolingvistik tabiatи	236
D.M.Zaripova	
Public relations: the key to Enhancing university global rankings and reputation.....	241
A.I.Tuychiyev	
Sport va turizm jismoniy madaniyat mashg'ulotlarining asosiy vositasi	248
S.Sh.Rasulov	
"Qishloq xo'jaligi axborot kommunikatsion texnologiyalari" fanini o'qitishda elektron dasturiy ta'minotdan foydalanish metodikasi.....	251
S.A.Rahmonberdiyeva	
Ingliz va o'zbek tillaridagi bino-inshootlar qurilishi sohasiga oid terminlarning diaxronik tadqiqi	255
Q.M.Xakimov	
Voleybol jamoaviy sport o'yinlarining talabalarda hamkorlikda muvaffaqiyatga erishishni o'rgatish bilan bog'liq muammolar	261
D.M.Azimova	
Buxgalteriya hisobi va audit terminlarining leksik-semantik tadqiqi.....	264

Farg'ona mintaqasi o'zining ilmiy salohiyati bo'yicha respublikamizda alohida o'rинга eга. O'zbekiston iqtisodiy rayonlari ichida falsafa doktori (PhD) ilmiy darajasiga ega olimlarning eng ko'п qismi, aynan, mazkur hududdan yetishib chiqqan (3-jadval).

3-jadval

Farg'ona mintaqasida falsafa doktori (PhD) ilmiy darajasini olish uchun bajarilgan iqtisodiy va ijtimoiy geografik tadqiqotlar

No	Dissertant ismi, sharifi va familyasi	Dissertatsiya mavzusi	Himo ya qilgan yili
1	N.O'.Komilova	Etnoekologik madaniyatning geografik jihatlari (Farg'ona vodiysi misolida)	Toshkent, 2019
2	X.A.Abduvaliyev	Aholining hududiy tashkil etilishini landshaft omili asosida takomillashtirish (Farg'ona vodiysi misolida)	Toshkent, 2020
3	Z.A.Temirov	Farg'ona vodiysi viloyatlarida demografik jarayonlar rivojlanishining hududiy xususiyatlari	Toshkent, 2022
4	M.M.Atajanov	Andijon viloyati qishloq joylarida ijtimoiy infrastruktura tizimining hududiy tarkibini takomillashtirish	Toshkent, 2022
5	X.O.Abdinazarova	Farg'ona iqtisodiy rayoni kimyo sanoati hududiy tarkibini rivojlantirish va takomillashtirish	Samarqand, 2022
6	E.G'.Maxkamov	Farg'ona viloyati tabiatidan rekreatsiya va turizm maqsadida foydalanishning geografik asoslari	Samarqand, 2022
7	Z.X.Madaminov	Oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarishni mintaqaviy xususiyatlari va takomillashtirish yo'llari (Farg'ona viloyati misolida)	Samarqand, 2023
8	M.O.Gapirov	Асакинский автомобильный завод: особенности территориально-отраслевого развития, влияния на экономику и трансформацию промышленности Ферганского региона	Samarqand, 2023
9	Z.L.Abduvaliyeva	Farg'ona vodiysi viloyatlari rekreatsiya resurslaridan foydalanishning iqtisodiy geografik jihatlari (sog'lomlashtirish maskanlari misolida)	Samarqand, 2024

Izoh: Jadval mualliflar tomonidan shakllantirilgan

Farg'ona mintaqasida bajarilgan PhD dissertatsiyalarining asosiy qismi sotsial geografik tadqiqotlarga to'g'ri keladi. Aytish lozimki, respublika iqtisodiy geograflari orasida PhD ilmiy darajasiga ega olimlar soni bo'yicha Farg'ona mintaqasi oldingi o'rnlarni egallaydi.

Tabiiy resurslardan nooqilona foydalanish oqibatida vujudga kelayotgan ijtimoiy-ekologik muammolarning etnogeografik ildizlari mavjudligi, bugungi ekologik muammolarni bartaraf etishda etnogeografik yondashuvning ahamiyatli ekanligini **N.O'. Komilova** asoslab bergen. Farg'ona vodiysi misolida etnoekologik madaniyatning geografik jihatlariga bag'ishlangan PhD dissertatsiyasi 2019-yilda himoya qilingan. Olima tadqiqotlarida tabiiy resurslardan oqilona foydalanish va ularni muhofaza qilishning strategik dasturlarini takomillashtirish, shuningdek, aholining etnoekologik madaniyatini yuksaltirish, ta'lim tizimida o'quv jarayoni samaradorligini oshirishga xizmat qiluvchi tahlillar amalga oshirilgan.

Oxirgi yillarda aholi punktlari demografik vaziyatini optimallashtirish, shaharlarning antropogen bosimini me'yorlashtirish, landshaftlarning tabiiy demografik imkoniyatlari aniqlash, aholi zich hududlarda aholi bandligini oshirishga ustuvor ahamiyat berilmoqda. Ayni ushbu masalalar **X.A.Abduvaliyev** tadqiqotlarining asosini tashkil qiladi. Uning aholi hududiy tashkil etilishini landshaft omili asosida takomillashtirishga oid Farg'ona vodisiga bag'ishlangan izlanishlari natijasi 2020-yili PhD dissertatsiyasi sifatida muvafaqqiyatli himoya qilingan. Unda

GEOGRAFIYA

tabiiy-landshaft omilining aholi joylashuviga ta'sirini baholashning ahamiyati, aholi zichligini ortishi natijisida yuzaga kelayotgan ijtimoiy-ekologik muammolarning tabiiy-demografik asoslari mavjudligi, aholini joylashtirishda tabiiy-landshaft yondoshuvining zarurligi asoslangan. X.A.Abduvaliyevning keyingi tadqiqotlarida asosiy e'tibor O'zbekistonda aholi manzilgohlarini hududiy tashkil etilishini takomillashtirishning geografik jihatlariga qaratilgan.

Aholi haqida so'z borganda, demografik jarayonlarning hududiy jihatlariga alohida to'xtalib o'tish lozim. Jumladan, aholi takror barpo bo'lishining hududiy xususiyatlarini aniqlash, aholi salomatligi va o'rtacha umr ko'rish davomiyligini oshirish, hududlarni iqtisodiy-ijtimoiy rivojlanishining demografik jarayonlarga ta'sirini o'rganish **Z.A.Temirov** izlanishlarida ko'zga yaqqol tashlanadi. Uning Farg'ona vodiysi viloyatlarida demografik jarayonlar rivojlanishining hududiy xususiyatlarini o'rganish bilan bog'liq tadqiqotlari 2022-yili PhD dissertatsiyasi sifatida yoqlangan. Chunonchi, dissertatsiyada Farg'ona vodiysi viloyatlarining o'ziga xos demografik jarayonlari, aholining nikohlanish jarayoni va tug'ilish koeffitsiyenti o'rtasidagi korrelyatsiya dinamikasi, demografik rayonlar aholisining 2040-yilgacha prognozi ishlab chiqilgan, olingen xulosalar asosida taklif va tavsiyalar ishlab chiqilgan.

Ma'lumki, keyingi yillarda qishloq joylar aholisining turmush tarzini belgilovchi ishlab chiqarish va ijtimoiy infrastruktura obyektlarining yaratilishi aholi sonining o'sishidan bir necha barobar ortda qolishi kuzatilmoqda. Qishloq joylarda iqtisodiy rivojlanishning shaharlardan sezilarli ortda qolishi tufayli aholining shaharlarga rejalashtirilmagan holda, ommaviy ko'chib ketishi jarayoni tezlashmoqda. Bu esa, o'z navbatida, aholi joylashishidagi inqiroziy nomutanosiblikni keltirib chiqarmoqda. Bunday dolzarb masalalarga bag'ishlangan tadqiqotlar **M.M.Atajanov** izlanishlari bilan bevosita bog'liq. Jumladan, qishloq joylarda ijtimoiy infrastruktura tizimining hududiy tarkibini takomillashtirishga oid tahlillar Andijon viloyati misolida bajarilgan. Natijada, M.M.Atajanov falsafa doktori (PhD) ilmiy darajasini olish uchun yozilgan dissertatsiyasini 2022-yili muvafaqqiyatli himoya qilgan. Dissertatsiya ishining ilmiy ahamiyati undagi qishloq joylar ijtimoiy infrastruktura tizimining hududiy tarkibini takomillashtirishga qaratilgan yondashuv zamonaviy iqtisodiy va ijtimoiy geografiyaning nazariy-metodologik asoslarini boyitishga xizmat qilishi bilan belgilanadi.

Tabiiy resurslarining qisqarib borishi tabiat-aholi-xo'jalik o'rtasidagi munosabatlarda sun'iy materiallar – rezina va plastmassa buyumlari, maishiy kimyo, farmatsevtika, lok-bo'yoq, kosmetika kabi kimyo sanoati mahsulotlaridan foydalanish ortib bormoqda. Ayni shu turdagи tovarlarga ehtiyoj juda yuqori bo'lgan Farg'ona vodiysida bunday izlanishlar **X.O.Abdinazarova** tomonidan amalga oshirilgan. Olimaning Farg'ona iqtisodiy rayoni kimyo sanoati hududiy tarkibini rivojlantirish va takomillashtirish mavzusida bajarilgan PhD dissertatsiyasi 2022-yili muvafaqqiyatli yoqlangan. Ishda kimyo sanoatida ekologik toza mahsulotlar yaratish, mahsulot hajmini matematik modellashtirish, prognozlash va shu asosda kimyo sanoatini jadal rivojlantirish hamda hududiy tarkibini takomillashtirish bo'yicha ilmiy xulosalar ishlab chiqishga alohida e'tibor qaratilgan. Uning keyingi tadqiqotlari O'zbekiston farmatsevtika sanoatining hududiy xususiyatlariga bag'ishlangan.

Rekreatsion-turistik faoliyat iqtisodiy rivojlanish va yangi ish o'rinalarini yaratishda yetakchi va jadal rivojlanayotgan sohalardan biri hisoblanadi. Chunonchi, rekreatsiya va turizm hech qanday siyosiy, mafkuraviy, geografik va madaniy chegaralarni bilmaydigan global miyosisidagi faoliyatga aylandi. Bugungi kunda rekreatsion-turistik resurslar va hududning rekreasjon-turistik salohiyatidan foydalanish hamda hududiy tashkil etish, kompleks baholash asosida rekreatsiya va turizmni rivojlantirishning istiqbolli dasturlarini yaratish bo'yicha ilmiy tadqiqotlarga alohida e'tibor qaratilmoqda. Bu borada E.G.Maxkamov tomonidan Farg'ona viloyati misolida olib borilgan izlanishlar ahamiyatli bo'lib, 2022-yili tabiatdan rekreatsiya va turizm maqsadida foydalanishning geografik asoslariga bag'ishlangan PhD dissertatsiyasi sifatida muvafaqqiyatli himoya qilingan. Ishda tabiiy va iqtisodiy-ijtimoiy geografik sharoitni rekreatsiya va turizm maqsadida baholash, uning turlarini aniqlash, rayonlashtirish, rekreasjon-turistik imkoniyatlarini oshirish va rivojlantirish masalalari yoritib berilgan.

Aholining tez sur'atlar bilan ko'payishi jarayonida ularning iste'mol tovarlariga, shu jumladan, oziq-ovqat mahsulotlariga bo'lgan ehtiyojlari ham yildan yilga ortib bormoqda. Jumladan, bu borada **Z.X.Madaminov** tomonidan olib borilgan tadqiqotlar alohida ahamiyatga ega bo'lib, oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarishni mintaqaviy xususiyatlari va takomillashtirish yo'llariga bag'ishlangan PhD dissertatsiyasi 2023-yili yoqlangan. Ishda iqtisodiyotni modernizatsiyalash

sharoitida mintaqaning iqtisodiy rivojlangan hududi – Farg'ona viloyatida oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarishning o'ziga xos muammolarini aniqlash va aholini iste'mol mollari bilan ta'minlashning iqtisodiy-ijtimoiy geografik jihatlari ochib berilgan.

Bugungi kunda aholi real daromadlarining ko'payishi, urbanizatsiya jarayonining jadallahuvni, infratuzilma elementlarining takomillashuvni natijasida aholining shaxsiy avtomobilarga bo'lgan ehtiyojlari ortib bormoqda. Markaziy Osiyodagi demografik salohiyati eng yuqori bo'lgan mamlakatimizdagi dastlabki avtomobil zavodi Andijon viloyatining Asaka shahrida bunyod etilgan bo'lib, zamonaviy sharoitda ushbu tarmoqning rivojlanish tendensiylarini tadqiq etish ahamiyatlari hisoblanadi. Xususan, **M.O.Gopirov** tomonidan 2023-yili himoya qilingan PhD dissertatsiyasida Asaka avtomobil zavodining hududiy va tarmoq rivojlanish xususiyatlari hamda uning Farg'ona mintaqasi iqtisodiyoti va sanoatining transformasiyasiga ta'siri tahlil etilgan. Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati sanoatning hududiy tuzilishidagi o'zgarishlarni iqtisodiy-geografik o'rganish metodologiyasini takomillashtirilganligi, sanoat ishlab chiqarish va atrof-muhitni boshqarishning hududiy tizimlarini ajratilganligi va tipologiyasini ishlab chiqilganligi bilan alohida e'tirofga loyiq.

Globallashuv jarayonida rekreatsiya va turizm sohasining barqaror rivojlanishi uning nafaqat mintaqalar iqtisodiyotining yetakchi sektori sifatidagi o'rnni, balki yangi ishchi o'rinnarini yaratish va u bilan bog'liq tarmoqlarni majmuaviy ravishda rivojlantirishni ham taqozo etmoqda. Shu jihatdan, rekreatsiya tarmoqlariga ehtiyoj juda yuqori bo'lgan Farg'ona mintaqasida sog'lomlashtirish maskanlari misolida rekreatsiya resurslaridan foydalanishning iqtisodiy geografik jihatlariga bag'ishlangan PhD dissertatsiyasi **Z.L.Abduvaliyeva** tomonidan bajarilgan bo'lib, 2024-yili falsafa doktori (PhD) ilmiy darajasiga loyiq ko'rilgan. Olma tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati rekreatsion-turistik imkoniyatlarini aniqlash, iqtisodiyotda va aholi salomatligini tiklash, ichki va tashqi turizmni rivojlantirish, hududning rekreatsiya resurslari va salohiyatidan turizmda foydalanishning metodik yondashuvlarini takomillashtirilganligi bilan izohlanadi.

Ta'kidlash lozimki, Farg'ona mintaqasining geografik, tarixiy, ijtimoiy va iqtisodiy jihatlari atroficha tahlil etilgan. Ularning ilmiy tadqiqotlari keyingi ilmiy ishlar uchun asos bo'lib, ushbu noyob mintaqani batafsil o'rganishga yordam beradi.

XULOSA

Yuqoridagi tahlillardan kelib chiqib keltirish mumkinki, Farg'ona mintaqasi iqtisodiy va ijtimoiy geografik tadqiqotlar eng faol olib borilayotgan ilmiy markazlardan biri hisoblanadi. Respublika bo'yicha hozirgacha bajarilgan doktorlik dissertatsiyalarining deyarli yarmi, nomzodlik dissertatsiyalarining 1/8 qismi va falsafa doktori (PhD) dissertatsiyalarining deyarli 1/4 qismi ushbu hududga to'g'ri keladi.

Ayni paytda, aholi joylashuvining landshaft-ekologik xususiyati, xorijiy investitsiyalar asosida tashkil etilgan qo'shma korxonalar va ularning iqtisodiy salohiyati, mashinasozlik sanoatining tarmoq-hududiy xususiyatlari, farmasevtika sanoati va yashil iqtisodiyotning geografik asoslari, qishloq xo'jaligi klasterlari, turizm, zamonaviy aholiga xizmat ko'rsatish tarmoqlari iyerarxiysi, anklav hududlardagi vektorli munosabatlar, jinoyatchilikning sotsial va hududiy jihatlari [10], etnomadaniyat va etnolingvistika kabi yo'naliishlarda ko'plab tadqiqotchilar DSc va PhD dissertatsiyalarini himoya qilish arafasida turibdi. Qolaversa, mintaqaning salohiyatidan kelib chiqqan holda kelajakda:

- ishlab chiqarish tarmoqlarini zamonaviy texnologiyalar yordamida optimal joylashtirish;
- aholining sotsial xususiyatlaridagi transformatsiya jarayonlarini baholash;
- urbanizatsiya jarayonlari, migratsiya oqimlari va ularning shahar infratuzilmasiga ta'sirini tahlil qilish;
- iqtisodiy tengsizlikning sabab va oqibatlarini aniqlash va uni kamaytirish yo'llarini ishlab chiqish;
- barqaror rivojlanish va yashil iqtisodiyotga o'tish bo'yicha strategiya va siyosatni ishlab chiqish;
- raqamlashtirish va avtomatlashtirishning mehnat bozori va iqtisodiy tuzilmaga ta'sirini o'rganish;
- sun'iy intellekt asosida ijtimoiy-iqtisodiy geografik kartalashtirish;
- mintaqalararo nomutanosiblikni kamaytirishga qaratilgan mintaqaviy siyosat mexanizmlarini takomillashtirish kabi izlanishlarni amalga oshirish mumkin.

GEOGRAFIYA

Ushbu tadqiqotlar Farg'ona mintaqasini rivojlantirishning ijtimoiy-iqtisodiy yuksaltirish strategiyalarini ishlab chiqishda muhim ahamiyat kasb etadi.

ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Гадоев К., Бердиева С. Ўзбек география фани фидойилари. – Т.: Ўзбекистон нашриёти, 2015. – 232 б.
2. Махамадалиев Р.Ю., Назаров М.И., Қодиров А.А. Ўзбекистон иқтисодий ва ижтимоий географияси илмий мактаби // Мирзо Улуғбек номидаги Ўзбекистон Milliy universitetining ilmий maktablari. – Т., 2008. – Б. 243-249.
3. Қодиров А.А. Ўзбекистонда иқтисодий географиянинг шаклланиши // Иқтидорли талабалар ва ёш олимларнинг республика илмий-амалий конф. мат. – Т., 2007. – Б. 50-51.
4. Солиев А.С. Ўзбекистонда география илми ва унинг географияси // Ўзбекистон География жамияти ахбороти / Илмий журнал, 44-жилд. – Т., 2014. – Б. 4-8.
5. Солиев А.С. Танланган асарлар / Масъул муҳаррир: Эгамбердиев А. – Т.: Mumtoz so'z нашриёти. – Б. 282–289.
6. Солиев А.С. Иқтисодий географик тадқиқотларда табиий географик омиллар ёхуд географик синтез ҳақида // Ўзбекистон География жамияти ахбороти / Илмий журнал, 45-жилд. – Т., 2015. – Б. 3-7.
7. Федорко В.Н., Қурбонов Ш.Б., Назаров М.И. Ўзбекистон Milliy universitetida иқтисодий ва ижтимоий география. – Т., 2019. – 32 б.
8. Федорко В.Н., Дружинин А.Г., Стрелецкий В.Н. Социально-экономическая география в Узбекистане: история формирования, современные векторы и международный контекст развития // Известия Российской академии наук. Серия географическая. – М., 2020. № 84 (4). – С. 617–625.
9. Ҳикматов Ф.Ҳ., Федорко В.Н., Қурбонов Ш.Б. Ўзбекистон География жамияти ахборотида чоп этилган мақолаларнинг хронологик, системали ва алифбо кўрсаткичи (1-55 жилд, 1955-2019 йй.) // Ўзбекистон География жамияти ахбороти. – Т., 2019. – 248 б.
10. Komilova N.Q., Jumaxanov Sh.Z., Mirzaaxmedov X.S., Toshpo'latov A.M. Sotsial va madaniy geografiya. – Т.: O'zMU, 2019.

Internet manbalari

11. Alisher Navoiy nomidagi O'zbekiston Milliy kutubxonasi. URL: <https://www.natlib.uz/>
12. Российская государственная библиотека. URL: <https://search.rsl.ru/>



УО'К: 9.908

JAHONDA EKOLOGIK TURIZM RIOVJLANISHINING REGIONAL T AHLILI**РЕГИОНАЛЬНЫЙ АНАЛИЗ РАЗВИТИЯ ЭКОТУРИЗМА В МИРЕ****REGIONAL ANALYSIS OF ECOTOURISM DEVELOPMENT IN THE WORLD****Namozov Jo'rabek Abduazizovich¹ **¹Chirchiq davlat pedagogika universiteti, g.f.f.d.(PhD), dotsent**Mirislomov Mirdavlat Miraziz o'g'li² **²Chirchiq davlat pedagogika universiteti talabasi**Annotatsiya**

Ushbu maqolada turizmnинг о'зига хос ю'налишларидан бирি bo'lgan ekoturizmni rejalashtirish, tartibga solish, qo'llab-quvvatlash, rag'batlantirish va monitoring qilish bo'yicha faol siyosat olib borayotgan va katta tabiiy salohiyat, resurslarga ega bo'lgan mamlakatlardan tajribasi muhokama qilinadi. O'rganish jarayonida formal-mantiqiy, qiyosiy va institutsional tahlil usullaridan foydalaniladi. Shuningdek, turli mamlakatlarda ekoturizmni rivojlanantirish bo'yicha to'plangan tajribalar ham bir davlatning о'зига хос xususiyatlaridan, ham umumiyl yondashuvlar, turizmni barcharor rivojlanantirish uchun shart-sharoitlar yaratish bo'yicha xalqaro tavsiyalar va vazifalar bilan uyg'unlikdan dalolat berishi ko'rsatilgan. Mamlakatlarda mavjud bo'lgan tizimli yondashuvlar va ilg'or yechimlarni "to'g'ri yechim" formatida tavsija etilishi mumkin, chunki ular ekoturizm rivojlanishning barqaror maqsadlariga erishishga qanday hissa qo'shishi mumkinligini ko'rsatadi.

Аннотация

В данной статье будет обсуждаться одно из специфических направлений туризма – экотуризм, который имеет активную политику планирования, регулирования, поддержки, продвижения и мониторинга, а также имеет большой природный потенциал и ресурсы, опыт стран. В процессе обучения используются формально-логический, сравнительный и институциональный методы анализа. Также накопленный опыт развития экотуризма в разных странах указывает как на специфику каждой страны, так и на общие подходы, соответствие международным рекомендациям и задачам по созданию условий для устойчивого развития туризма. Системные подходы и передовые решения, доступные в странах, могут быть рекомендованы в формате «правильного решения», поскольку они демонстрируют, как экотуризм может способствовать достижению целей устойчивого развития.

Abstract

The article discusses the experience of countries that have a significant natural potential and pursue an active policy on planning, regulation, support, promotion and monitoring of ecotourism. During the study the methods of formal-logical, comparative and institutional analysis. It is shown that the experience in the development of ecotourism accumulated by different countries testifies to both the specifics of each of the countries and the general approaches, harmonies worshiped with international recommendations and tasks to create conditions for sustainable development of tourism. System approaches existing in different countries and advanced solutions can be recommended in the format of the "right solution", since they demonstrate how ecotourism can contribute to the achievement of sustainable goals development.

Kalit so'zlar: Ekologik turizm (ekoturizm), iqtisodiy barqarorlik, milliy bog', qo'riqxona, park-rezervat, modellar.**Ключевые слова:** Экологический туризм (экотуризм), экономическая стабильность, национальный парк, заповедник, парк-заповедник, модели.**Key words:** Ecological tourism (ecotourism), economic stability, national park, reserve, park-reserve, models.**KIRISH**

Turizm jahonning ko'plab mamlakatlari iqtisodiyoti tarkibida tez rivojlanayotgan va salmoqli o'rinni egallaydigan tarmoq bo'lib, unda ekologik turizm innovatsion yo'nalish sifatida jadal rivojlanayotgan yo'nalishga aylandi. Ekologik turizm tabiat bilan kishilarning uzviy bog'liqligi va bevosita muloqotini rivojlanantirishga va tabiatda huzur-halovat, madad quvvat, bilim, tashkil etuvchilarga esa katta daromad olishga, umuman ekologik iqtisodiy barqarorlik va muvozanatni saqlagan holda faol dam olishga asoslanadi, an'anaviy ko'ngil ochish, maishiy komfort (qulaylik)

GEOGRAFIYA

esa ikkinchi o'ringa tushadi. Unda yuqori darajada xizmat ko'ssatadigan mehmonxonalar o'rnini oddiy chodir, uy-mehmonxona va kempinglar, tabiat qo'ynda dam olish, sayoxat qilish egallaydi. Bugungi kunda ekologik turizm jadal rivojlanib borayotgan turizm yo'naliishlarining biridir.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA

Jahon ekoturizm bozori hajmi 2023 yilda 196,2 milliard dollarga yetdi. Oldinga qarab, IMARC Group bozor 2032 yilga kelib 561,9 milliard AQSh dollariga yetishini kutmoqda va 2024-2032 yillarda 12% o'sish sur'atini namoyish etadi. Atrof-muhitni muhofaza qilish bo'yicha xabardorlikning oshishi, barqarorlikka bo'lgan talabning kuchayishi, mas'uliyatlari turizm amaliyotlarini targ'ib qiluvchi hukumat tashabbuslari va tabiatni muhofaza qilish siyosati, texnologiyaning rivojlanishi va ixtiyoriy daromadlarning o'sishi bozor o'sishini tezlashtiradigan omillardir. Bu sohaning jahon turizm industriyasidagi ulushi 4%, ekoturizm xizmatlaridan olinadigan daromad esa 55 mlrd. AQSh dollarini tashkil qiladi [1].

1-jadval**Jahonda ekoturizmning bozor hajmi³****Hisobot atributi****Asosiy statistika**

Asosiy yil	2023 yil
Yillar prognozi	2024-2032 yillar
Tarixiy yillar	2018-2023 yillar
2023 yilda bozor hajmi	196,2 milliard AQSh dollari
2032 yilda bozor prognozi	561,9 milliard AQSh dollari
Bozorning o'sish sur'ati 2024-2032 yillar	12%

Jahonda ekoturizmni rivojlantirishda yagona, ya'ni universal, har bir davlatning tabiiy va iqtisodiy sharoitiga mos keladigan model hozirgacha ishlab chiqilmagan. Lekin ko'plab davlatlarda ekoturizmni rivojlantirishning tayanch hududlari sifatida milliy bog' (park) va qo'riqxonalar qabul qilingan. Milliy parklar – faoliyati tabiiy landshaft va biologik xilma-xillikni saqlash funksiyalarini bajarish bilan birga rekreasiyani rivojlantirishga qaratilgan alohida muhofaza etiladigan tabiiy hududlar. Hozirgi vaqtida dunyoda 3000 dan ortiq milliy bog'lar bor [3].

2-jadval**Tabiiy meroslar va ularning xilma-xilligi bo'yicha yetakchi davlatlar ro'yxati⁴**

Davlat nomi	Jahon tabiiy merosi obyektlari mavjudligi	Ma'lum turlarning umumiyligi	Muhofaza qilinadigan hududlarning umumiyligi
Avstraliya	+		
Boliviya		+	
Braziliya	+	+	
Buyuk Brtinaiya	+		
Veneuela		+	
Germaniya		+	+
Zambiya			+
Hindiston		+	+

³ <https://www.imarcgroup.com/ecotourism-market>⁴ The Travel & Tourism Competitiveness Report 2017: Growth Paving the way for a more sustainable and inclusive future. World Economic Forum, 2017 (http://www3.weforum.org/docs/WEF_TTCR_2017_web_0401.pdf).

Indoneziya		+	
Kanada	+		
Xitoy	+	+	
Kolumbiya		+	
Kongo DR	+		
Meksika	+	+	
Peru		+	
Rossiya	+		
AQSH	+		
Xorvatiya			+
Ekvador		+	

Ko'p hollarda milliy bog'lardan ekoturizmda foydalanishda xususiy moliyaviy ta'minot qo'llanilmoqda. Ekoturizmning prinsiplariga binoan, ekoturist tabiat bag'rida dam olganligi uchun minimal xaq to'laydi. Hozirda milliy bog'lar hududida ekoturizm sohasidagi pullik xizmatlar jahonning 30 dan ortiq davlatlarida rivojlanmoqda. Dunyo bo'yicha milliy bog'larning yillik daromad hajmi 1 mlrd. AQSh dollaridan oshadi. Milliy bog'lardan ekoturizmda foydalanishdan Kanada har yili 250 mln dollar, AQSh esa 870 mln dollar foyda topmoqda (Хайитбоев Р). Yaponianing milliy bog'lariha har yili 316 mln. xorijiy va ichki ekoturistlar tashrif buyuradi [1].

3-jadval

Ekoturizmning ta'riflari⁵

Mualliflar	Kontseptsyaning talqini
Xalqaro ekoturizm jamiyatি	Ekoturizm - tabiatni muhofaza qilish va mahalliy aholining hayot sifatini saqlashga yordam beradigan tabiat hududlariga mas'uliyat bilan sayohat qilish.
Turizm bo'yicha Ekologik barqaror rivojlanish guruhi	Ekoturizm - bu turizm va atrof-muhit o'tasidagi simbiotik munosabatlар g'oyasi bo'lib, u yanada ekologik toza turizm sanoatiga aylanishiga yordam beradi.
Jahon tashkiloti (JTT)	Ekoturizm (tabiiy turizmning boshqariladigan shakli) - ekologiya haqida tushuntirishlar beradigan mahalliy gidlar yordamida tabiiy hududlar, mahalliy flora, fauna bo'ylab boshqariladigan qayiq sayohatlari. Ekoturizm qishloqlar va fermalarga tashrif buyurishni o'z ichiga olishi mumkin.
Avstraliya ekoturizm strategiyasi	Ekoturizm - bu tabiatga, shu jumladan tabiiy muhit bilan tanishish munosabatlariiga va uni tushuntirishga asoslangan ekologik barqaror turizm hisoblanadi.
A.L. Lindberg D. Fennell	Ekoturizm - bu barqaror, tabiatga yo'naltirilgan turizm va rekreatsiyadir. Ekoturizm - bu tabiatdagi hayot va uni bilishga qaratilgan, axloqiy me'yorlarga muvofiq tashkil etilgan, atrof-muhitga ta'sir qilish, iste'mol va xarajatlarni minimallashtirish va mahalliy darajaga yo'naltirilgan turizm mahalliy turizmning ekologik jihatdan barqaror shakli. Odatta turizmning bu shakli qo'riqlanadigan hududlarda rivojlanadi va ushbu hududlarni saqlashga hissa qo'shish uchun innovatsiyalar yaratishga mo'ljallangan.
Ross S., Wall G. Ekoturizmni baholash: Shimoliy Sulavesi, Indoneziya misolida	Ekoturizm ham tabiatni asrash, ham rivojlanishga hissa qo'shishi mumkin; u, hech bo'lmaganda turizm faoliyati, biologik xilma-xillik va mahalliy aholi ovqatlanishi o'tasidagi ijobi energiya munosabatlarini o'z ichiga oladi, bu esa ushbu faoliyatning tegishli tashkiloti va boshqaruvi tomonidan qo'llab-quvvatlanadi.
Kanada maslahat kengashi	Ekoturizm - bu ekotizimlarni saqlashga hissa qo'shadigan va mahalliy hamjamiatning yaxlitligini buzmaydigan ta'lim beruvchi tabiiy sayohat.

⁵ Рудакова Современное состояние и перспективы развития мирового экотуризма // Проблемы экономики. 2009. №2 (9). URL: <https://cyberleninka.ru/article/n/sovremennoe-sostoyanie-i-perspektivy-razvitiya-mirovogo-ekoturizma>

GEOGRAFIYA


Tabiiy go'zalligi bilan ajralib turadigan mamlakatlarda turizm ko'pincha milliy bog'larni yaratishning asosiy sababidir. Masalan, Kosta-Rika o'z hududining 30 foizini qo'riqxona deb e'lon qildi. Bu mamlakatda turizm yetakchi daromad manbai bo'lib, yiliga 650 million dollarga etadi. Janubiy Afrikada ekoturizm rentabellik bo'yicha olmos qazib olishdan keyin ikkinchi, Alyaskada esa neft qazib olishdan keyin ikkinchi o'rinda turadi. Keniyaning milliy bog'lardan foydalanishdan yillik daromadi 450 million dollarga yetadi [5]. Italiya Davlat Statistika Instituti (ISTAT) ma'lumotlariiga ko'ra, 2018 yil oxiriga kelib Italiyada 9718 ta qishloq dam olish muassasalari ro'yxatga olingan, bu 2017-yilga nisbatan 14,7% ga o'sgan. Ushbu fermer xo'jaliklarining 45% Italiyaning shimoli-sharqida, asosan Bolzano provinsiyasida (27,6%) joylashgan. Qishloq turizm ob'ektlarining 24% Italiyaning markaziy mintaqalarida to'plangan, ularning aksariyati Toskanada (15%) to'plangan. Qishloq turizmi Italiyaning janubida va orollarda kam uchraydi [3].

NATIJALAR VA MUHOKAMA

Hozirgi vaqtida milliy bog'larning 5 ta modeli bor: Amerika, Yevropa, Osiyo, Avstraliya hamda park-rezervat modellari.

1-rasm

Milliy bog'larning modeli⁶



Milliy bog'larning Amerika modelida muhofaza etiladigan hududlarning juda kattaligi bilan xususiyatlanadi. Grenlandiyadagi "Grenlandiya" (maydoni 70 mln. ga), AQShdagagi "Alyaska" (maydoni 7,3 mln. ga), Kanadadagi "Bud-Baffalo" (maydoni 4,4 mln. ga), Botsvanadagi "Markaziy Kalaxari" (maydoni 5,2 mln. ga), Mongoliyadagi "Gobi" (maydoni 5 mln. ga), Rossiyadagi Kolima (maydoni 3 mln. ga) milliy bog'lari ushbu modelga mos muhofaza etiladigan tabiiy hududlarning misollari hisoblanadi.

Bu modeldagi dastlabki milliy bog' Amerika Qo'shma Shtatlarida 1872 yilda tashkil etilgan, hozirda dunyoga mashhur Yellowston milliy bog'i hisoblanadi. AQSh va Kanadada milliy bog'larning maydonlari tobora kengayib bormoqda. Hozirgi paytda Kanada hududining 12 foizi milliy bog'larga to'g'ri keladi. Bu erda milliy bog'lar davlat tasarrufida bo'lib, ba'zi xollarda yirik korporasiyalarga ijaraga beriladi, lekin shunda ham milliy bog' tabiat muhofazasini nazorat qilish huquqi davlat hokimiyatida saqlanadi [4].

AQShda milliy bog'larni moliyalashtirish juda baland. Milliy bog'larni saqlash uchun federal hukumat ham, shtatlar ham mablag' ajratadi. Bunga qo'shimcha bo'lib xususiy mulkdorlar ham mablag' qo'shishadi (milliy parklardagi rekreasiya xizmatlarining yarmi xususiy sektorda). Shuning uchun ham Shimoliy Amerikadagi milliy bog'lar dunyodagi eng boy milliy bog'lardir.

Milliy bog'larning Yevropa modeli. Yevropadagi dastlabki milliy bog' 1909-yilda Shvetsiyada tashkil etilgan. Ammo bu modeldagi muhofaza etiladigan hududlarning tipik namunalari Buyuk Britaniyada tashkil qilingan bo'lib, ayrim hollarda milliy bog'larning Yevropa modeli inglez model deb

⁶ Bishop K., Green M., Phillips A. Model national park / K. Bishop, M. Green, A. Phillips - M.: Izd. TsODP, 2000

ham ataladi. Bu modeldag'i milliy bog'lar aholisi zich joylashgan hamda shaharlashuv darajasi juda yuqori bo'lgan G'arbiy Yevropa davlatlari va Yaponiyada keng tarqalgan [5].

Bu modeldag'i milliy bog'larning asosiy xususiyatlari hududiy jihatdan kichikligi, erlarining katta qismi xususiy mulkda ekanligi, boshqaruva jarayonida mahalliy hokimiyat va o'zini-o'zi boshqarish tuzilmalarning keng ishtiroki, rekreasion funksiyalarining birlamchiligi hamda ko'proq mahalliy (atrofdagi) sayyoohlarga xizmat ko'rsatishga ixtisoslashganligidan iborat. G'arbiy Yevropa va Yaponiyadagi milliy bog'larning moliyalashtirish va rentabellik darajasi ekoturistlar oqimi kattaligi hisobiga ancha yuqori.

Rezervat-park modelining rivojlanish konsepsiysi o'ziga xos mazmunga ega. Bu modeldag'i milliy bog'larni moliyalashtirish davlat hisobidan amalga oshirilmasdan, ekoturistlarga pullik xizmat ko'rsatish hisobiga amalga oshiriladi. Bu modeldag'i milliy bog'larning faoliyatining bosh prinsipi o'zining ichki imkoniyatlar va resurslarga tayanishdir. Bu model XX asr o'talarida shakllanib, hozirda rivojlanayotgan davlatlar, ayniqsa Afrika va Karib havzasidagi mamlakatlarda keng tarqalgan. Milliy bog'larga kirish chiptasining bahosi ancha past, shuning uchun ham xizmatlardidan turistlar (ayniqsa xorijiy davlatlardan tashrif buyuradiganlari) juda ko'p foydalanishmoqda [6].

Milliy bog'larning Osiyo modeli hozirgi vaqtida shakllanish bosqichida. Osiyodagi milliy bog'larning aksariyat qismi Tailand, Shri-Lanka, Bangladesh, Turkiya, Indoneziya, Malayziya, Filippin va Koreya Respublikasi kabi davlatlarda joylashgan. Aholi zichligining yuqoriligiga qaramay, Osiyo davlatlarida milliy bog'larning soni ko'payib, yer fondi kengayib bormoqda. Koreya Respublikasidan tashqari, aksariyat Osiyo mamlakatlarda milliy bog'lar davlat tasarrufida va moliyalashtirilishi, asosan davlat zimmasida. Ammo moliyalashtirish miqdori xattoki Afrikadagi ko'pchilik milliy bog'larga nisbatan pastroq. Odatta, milliy bog'larni moliyalashtirishga xorijiy sarmoyalardan foydalanimaydi. Milliy bog'larning moliyaviy ahvoli Sharqiy va Janubi-Sharqiy Osiyodagi yangi sanoatlashgan mamlakatlar, ya'ni Koreya Respublikasi, Malayziya va Tailandda eng yuqori darajada bo'lmoqda. Osiyodagi milliy bog'larga tashrif buyurayotgan sayyoohlarning soni borgan sari ortib bormoqda va ayrim davlatlarda (birinchi navbatda, Tailandda) Karib davlatlarining darajasiga yaqinlashdi. Osiyo modelidagi milliy bog'larning yana bir xususiyati ularning faoliyatiga katta miqdordagi ishchi kuchining jalb qilinganligi bilan tavsiflanadi. Demak, Osiyo davlatlaridagi milliy bog'lar iqtisodiy jihatdan yuksalishga tomon rivojlanib bormoqda. Milliy bog'larning Osiyo modelida boshqa modellarning turli qirralarini mujassam qilishga bo'lgan intilish kuzatilmoqda.

Milliy bog'larning Avstraliya modeli. Avstraliya Ittifoqi ekologik turizmni o'ziga xos tamoyillarga asoslangan holda tashkil qila turib, jahonda ekologik turizmni rivojlantirayotgan etakchi davlatlardan biri hisoblanadi. Avstraliyada milliy bog'lar hududida ekoturizmni rivojlantirish ishlari puxta asoslangan federal hamda hududiy rejalar orqali ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish davlat dasturlari doirasida amalga oshiriladi. Bunda federal hukumat shtatlar va hududlarning takliflarini hisobga olgan holda qarorlarni qabul qiladi. Eng muhimi shundaki, ekologik turizmni tashkil qilishda mahalliy (aborigen) aholining ijtimoiy-iqtisodiy manfaatlari hisobga olinadi va ekoturistik xizmatlarni amalga oshirish to'liq ularga topshiriladi. Bu holat mahalliy aholining ish va daromad manbai bilan ta'minlash, kichik qishloqlarning infratuzilmasini modernizasiya qilish muammolarini hal qilishga ko'maklashadi [7].

XULOSA

So'nggi o'n yillikda ekoturizm o'z rivojlanishining katta bosqichini bosib o'tdi. Tabiiy hududlarga tashrif buyurish, mahalliy xalqlar madaniyati, turmush tarzining o'ziga xos xususiyatlari bilan tanishish, yovvoyi tabiatni kuzatishga qiziqish ortib bormoqda, bu esa butun dunyo bo'ylab ekoturizm loyihalari sonining ko'payishiga olib keldi. Turli iqtisodiy salohiyatga ega mamlakatlар hukumatlari o'z hududlarida ekoturizmni rivojlantirish strategiyalarini ishlab chiqmoqda va bu jarayonni izchil qo'llab-quvvatlamoqda. Turli mamlakatlarda ekoturizmni rivojlantirish bo'yicha to'plangan tajribalar ekoturizm siyosatini shakllantirish va amalga oshirishda mamlakatning o'ziga xos xususiyatlari va umumiy yondashuvlari bilan yengib o'tilayotganligi, "yashil iqtisodiyot"ga o'tish sharoitida turizmni barqaror rivojlantirish uchun shart-sharoitlar yaratish bo'yicha xalqaro tavsiyalar va vazifalar bilan uyg'unlashtirildi.. Turli mamlakatlар milliy vaziyat va ustuvorliklar bo'yicha ularga mos keladigan turli yondashuvlar, tushunchalar, modellar va vositalarni shakllantiradilar. Barqaror rivojlanishning global konsepsiysi tamoyillariga mos keladigan turizmning "eng yaxshi shakli"ga

GEOGRAFIYA

erishish imkoniyati yoki mumkin emasligi to'g'risida davom etayotgan muhokamalar doirasida turli mamlakatlarning aniq misollari barqaror rivojlanish maqsadlariga erishishga qanday hissa qo'shishi mumkinligini ko'rsatib beradi. Shuningdek, ekoturizmni hududiy rivojlantirish uchun bir qancha takliflar mavjud:

- Ekologik toza turar joy, chiqindilarni boshqarish tizimlari va barqaror transport imkoniyatlarini rivojlantirish orqali mintaqalarda infratuzilmasini yaxshilashga sarmoya kiritish;
- Tabiiy yashash joylari va ekotizimlarni saqlash va tiklash bo'yicha ish olib borish, va shu orqali tashrif buyuruvchilar uchun mintaqaning biologik xilma-xilligi bilan tanishish imkoniyatini yaratish;
- Mahalliy aholini ekoturizm faoliyatida ishtirok etishi va undan foyda olishi uchun treninglar va imkoniyatlarni taqdim etish orqali mahalliy hamjamiyatlarni ekoturizm tashabbuslariga jalb qilish;

Ushbu jihatlarga e'tibor qaratish orqali ekoturizmning hududiy rivojlanishi mintaqaning tabiiy va madaniy merosini saqlab qolgan holda barqaror iqtisodiy imkoniyatlar yaratishga yordam beradi.

ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Xayitboev R. Ekologik turizm. – Samarqand, 2010. – 60 b.
2. Bishop K., Green M., Phillips A. Model national park / K. Bishop, M. Green, A. Phillips - M.: Izd. TsODP, 2000. – 213 p.
3. Афанасьев О.Е., Афанасьева А.В. Концепт «экологического туризма» в мировой и российской практике: компартивный анализ и кейсы // Современные проблемы сервиса и туризма. 2017. Т.11. №4. С. 7-25.
4. Ердавлетов С.Р. География туризма: история, теория, методы, практика. - Алмати, 2000. – 336
5. Александрова А.Ю. Международный туризм: учебник. - М.: Аспект Пресс, 2002. - 470 с
6. Храбовченко В. В. Экологический туризм: - М.: Финансы и статистика, 2003. - 208 с.
7. Maksanova L., Guseva E., Baast Oyungerel, Ayusheeva S., Munkueva V. International experience of ecotourism development: Country specifics and common approaches. In: Bulletin of the Moscow Regional State University, Series: Natural Sciences, 2019, no. 2, pp. 54–66. DOI: 10.18384/2310-7189-2019-2-54-66
8. Рудакова Современное состояние и перспективы развития мирового экотуризма // Проблемы экономики. 2009. №2 (9). URL: <https://cyberleninka.ru/article/n/sovremennoe-sostoyanie-i-perspektivy-razvitiya-mirovogo-ekoturizma>

**SIRDARYO VILOYATIDAGI BOTQOQLANGAN AHOLI PUNKTLARI****БОЛОТИСТЫЕ НАСЕЛЕННЫЕ ПУНКТЫ В СЫРДАРЬИНСКОЙ ОБЛАСТИ****SWAMPY SETTLEMENTS IN THE SYRDARYA REGION****Aripov Islom Kaxramonovich** 

Guliston davlat universiteti tayanch doktoranti

Annotatsiya

O'zbekistonning ayrim hududlarida botqoqlik muammosi kuzatilmogda. Bu muammo ayniqsa sho'rangan tuproqlarda joylashgan aholi punktlarida sezilarli bo'ladi. Ushbu maqolada O'zbekiston Respublikasi Sirdaryo viloyatining relyef pastliklarida joylashgan ba'zi shaharlarning botqoqlanishidan yetadigan zarar ko'rib chiqiladi. Dalalarni sug'orishda drenaj kamchiliklari yer osti suvlari sathining ko'tarilishiga, botqoqlanishiga va bino va inshootlarning jiddiy shikastlanishiga olib keladi. Ijtimoiy so'rov vositasida jabrlangan shaharlarning aholisiga botqoqlanish natijasida yetadigan moddiy zararni baholash amalga oshirildi. Natijalar shuni ko'rsatdiki, aholining qariyb 60 foizi botqoqlik va sho'rangan tufayli har yili uylarini qo'shimcha ta'mirlashga majbur. O'ttacha bu har bir xonadonga yiliga 322,4 dollarni tashkil etadi, bu deyarli o'ttacha oylik ish haqiga teng.

Аннотация

В некоторых районах Узбекистана наблюдается проблема заболачивания. Эта проблема особенно заметна в населенных пунктах, расположенных на солонцеватых почвах. В данной статье рассматривается ущерб, причиняемый заболачиванием некоторых городов, расположенных в низменностях Сырдарьинской области Республики Узбекистан. Недостатки дренажа во время орошения приводят к подъему уровня грунтовых вод, заболачиванию и серьезным повреждениям зданий и сооружений. С помощью социальных опросов была оценена материальная ущерб, причиняемый населению пострадавших городов в результате заболачивания. Результаты показали, что почти 60 процентов населения вынуждены ежегодно проводить дополнительные ремонты своих домов из-за заболачивания и засоления. В среднем это составляет 322,4 доллара на каждое хозяйство в год, что почти эквивалентно средней месячной зарплате.

Abstract

In certain areas of Uzbekistan, the problem of swamping is observed. This issue is particularly noticeable in settlements located in saline soils. This article discusses the damage caused by the swamping of some cities located in the low relief of the Syrdarya region of the Republic of Uzbekistan. Deficiencies in drainage during irrigation lead to a rise in groundwater levels, swamping, and significant damage to buildings and structures. Through social surveys, the material damage caused to the populations of affected cities due to swamping was assessed. The results showed that nearly 60 percent of the population is forced to carry out additional repairs on their homes annually due to swamping and salinization. On average, this amounts to 322.4 dollars per household per year, which is nearly equivalent to the average monthly wage.

Kalit so'zlar: sho'rangan, sug'orish, qishloq xo'jaligi, botqoqlanish.**Ключевые слова:** засоление, орошение, сельское хозяйство, заболачивание.**Key words:** salinization, irrigation, agriculture, swamping.**KIRISH**

Tuproqning sho'ranganishi O'zbekistonda qishloq xo'jaligi, qurilish va atrof-muhitga salbiy ta'sir ko'rsatuvchi asosiy omil hisoblanadi. Respublikadagi jami sug'oriladigan maydonlarning 46,6 foizini tashkil etuvchi 2 million gektarga yaqin maydon turli darajada sho'ranganishdan aziyat chekmoqda. Sho'ranganishning asosiy sababi sho'rangan yer osti suvlari sathining kritik chuqurlikdan yuqoriga ko'tarilishi bo'lib, bu samarasiz sug'orish tizimlaridan ko'p suv yo'qotishlari va qishloq xo'jaligida sug'orishning asossiz yuqori sur'atlari bilan bog'liq (Begmatov va Yo'ichiiev, 2020).

Sho'ranganish nafaqat qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishiga salbiy ta'sir qiladi, balki aholi uchun (mavjud va potentsial) biznes imkoniyatlarini yo'qotish kabi to'g'ridan-to'g'ri noxush oqibatlarga olib keladi (Shahar sho'ranganishi ..., 2004):

- Biznesni yo'qotish, mavjud va potentsialni hisobga olish kerak.

GEOGRAFIYA

- Fermer xo'jaliklari zarar ko'rganda qishloqni qayta qurish xarajatlarini ham hisobga olish kerak.

- Bundan tashqari, o'zgarishlardan zarar ko'rgan oilalarda stress tufayli sog'liq muammolarining kuchayishi hisobga olinishi kerak.

Sho'rلانishning odamlarga bilvosita ta'siri tabiiy muhit sifatining pasayishida namoyon bo'ladi. Yerlarning sho'rланishi va yer osti suvlari sathining balandligi yo'l va ko'priklarga zarar yetkazadi. Aholi punktlarida piyodalar, parklar, kanalizatsiya quvurlari, turar-joy binolari, sanoat inshootlari ham shikastlanadi. Bu hodisalar katta moliyaviy xarajatlarni keltirib chiqaradi.

S. Wilson (2003) ma'lumotlariga ko'ra, suvli qatlamlarning yuqori sho'rланishi va sho'rланган suv ta'minoti qishloq va shaharlarda ta'mirlash va texnik xizmat ko'rsatish xarajatlarining oshishiga olib kelishi mumkin. Misol uchun, sho'rланган hududdagi sport stadionining yillik ta'mirlash va texnik xizmat ko'rsatish narxi 5000 dollarni tashkil qiladi. Urban Salinity..., 2004 ma'lumotlariga ko'ra, Avstraliyada sho'rланishga uchragan infratuzilmani ta'mirlash yiliga taxminan 100 million dollarga tushadi. Suv bosgan joylarda salbiy ta'sir kuchayishi mumkin. Shaharlarda botqoqlanish yog'ingarchilikning ko'payishi va pasttekis joylarda aholi punktlarini qurish natijasida yuzaga kelishi mumkin. Rivojlanmay qolgan drenaj tizimlari ham asosiy sabab bo'lishi mumkin, chunki ular ko'pincha shahar qurilishida e'tibordan chetda qoladi (Yun-Fang Ning va boshq., 2017). Tuproqlari sho'r bo'lgan joylarda suv botqoqlanishi suv va tuzning birgalikdagagi ta'siridan bino va inshootlarga zarar yetkazishi mumkin. Ushbu zarar bo'yoq, yog'och, metall konstruktsiyalar va betonga zarar yetkazishi mumkin (Aghimien va boshq., 2018).

D.Qosimova (2023) botqoqlanishga moyil sho'rланган tuproqlarda sanoat va aholi inshootlarini qurishda ko'pincha poydevorning yuk ko'tarish qobiliyatida yo'l qo'yib bo'lmaydigan deformatsiyalar va yo'qotishlar sodir bo'lishini ta'kidlaydi. Tasodifiy cho'kish suv ta'minoti tarmoqlaridan oqmalar tufayli yuzaga kelishi mumkin, bu esa poydevor tuproqlarining qo'shimcha namlanishiga va ularning notejis cho'kishiga olib keladi. Turar-joy binosi poydevorining notejis cho'kishi holatlari mavjud bo'lib, bu devorlarda 7 sm gacha ochilishi bilan yoriqlar paydo bo'lishiga olib keldi. Ushbu yoriqlar tufayli bino vertikal ravishda to'rt qismga bo'lingan, bu esa qimmatbaho ta'mirlash ishlarini talab qilgan.

Binolar sifatining yomonlashuvi aholi turmush sharoitiga salbiy ta'sir ko'rsatayotgan ekan, shuni aytish mumkinki, hududlarning botqoqlanishi, ayniqsa sho'rланган tuproqlarda aholi uchun geoekologik xavfning turlaridan biri hisoblanadi.


O'zbekistonda aholi punktlarining botqoqlanishi va sho'rланishining ijtimoiy hayotga ta'sirini baholash muammosi amaliy jihatdan o'rganilmagan. Mayjud tadqiqotlar faqat yer osti suvlari sathi ko'tarilishining bevosita muammosiga bag'ishlangan (Karimov va boshqalar, 2019, Yunusova va Mirzahodjayev, 2018).

Ushbu ishning maqsadi Sirdaryo viloyatida yerlarning sho'rланishi va botqoqlanishi bilan bog'liq uy-joylar uchun xavflarning pul bahosini berishdan iborat.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR.

Sirdaryo viloyatidagi aholi punktlarining tuproqlari ozmi-ko'pmi sho'rланган bo'lib, tarkibida suvda eruvchan tuzlar ma'lum miqdorda bo'lib, ular tuproq muhitining beton, po'lat va boshqa qurilish materiallariga nisbatan korrozivligini belgilaydi.

2020-yilda Sirdaryo viloyatida sho'rланган tuproqlar miqdori 9739 ga; 2021 yilda - 8980 ga bo'lgan. Sirdaryo viloyati pasttekisliklarda, Sirdaryo daryosining vodiysida joylashganligi sababli aholi punktlarini suv bosishi xavfi doimo mavjud (1-rasm).



1-rasm. Sirdaryo viloyatining topografik xaritasi

(Manba:<https://ru-ru.topographic-map.com/map-s41qf3/>

Syrdarinskaya/?center=40.40036%2C68.18316&zoom=8&popup=41.42489%2C65.58581)

Noto'g'ri tashkillashtilgan sug'orish tufayli yer osti suvlari sathining ko'tarilishi vaziyatni yanada og'irlashtiradi va bino va inshootlarning shikastlanishiga va hatto vayron bo'lisliga olib kelishi mumkin. Sirdaryo viloyatining bir qator aholi punktlari sug'orish mavsumida botqoq zonada bo'ladi.

Guliston, Sirdaryo, Yangiyer va Shirin (Yunusova va Mirzahodjayev, 2018; Karimov va boshqalar, 2022) suv bosgan shaharlar sirasiga kiradi, ammo bu nisbatan katta aholi punktlaridan tashqari, ko'plab kichik aholi punktlari suv bosgan zonada joylashgan. Qayd etilgan shaharlar haqida qisqacha geologik-geografik ma'lumotlar berib o'tamiz.

Guliston shahri Och dashtning eski sug'oriladigan zonasida joylashgan. Yer osti suvlarining sati rejimi sug'orish bo'lib, sug'orish rejimiga, birinchi navbatda kanallarni tushirish rejimiga bog'liq.

Eng yuqori joylashuv vaqtida yer osti suvlari sati shaharning markaziy qismida 0,5 - 1,0 m, janubi-sharqiy va shimoliy qismlarida esa 1,0 - 1,5 m chuqurlikda joylashgan.

Yer osti suvlarining eng past sathida (sug'orish mavsumining oxiri) yer osti suvlari Do'stlik kanalining ta'sir zonasida 3,0 - 3,5 m dan sug'orish ta'sir zonasida 2,0 - 3,0 m gacha chuqurlikda bo'ladi.

Qoidaga ko'ra, yer osti suvlari ta'minot manbalaridan uzoqda va sathning eng past joylarida ko'proq minerallashgan va aksincha, filtratsiya manbalari yaqinida va yozgi vegetatsiya davrida kamroq minerallashgan bo'ladi.

Guliston tuproqlari 0,2 dan 2-3 m gacha chuqurlik oraliq'ida 0,2 dan 4,4% gacha, srdenemda 0,78% quruq vaznda suvda eruvchan tuzlarni o'z ichiga oladi. Tuzlarning suvli eritmasining minerallashuv turi sulfat-kalsiy (Yunusova , 2018).

Yangiyer shahri Holodnostepskiy platosining janubi-sharqiy qismida joylashgan. Yer osti suvlarining minerallashuv darajasi drenaj kollektorlarining chuqurligiga va ulardan masofaga qarab 1-2 m. Yer osti suvlarining minerallashuvi va tuproq sho'rланishi shahar hududida notejis tarqalgan. Yer osti suvlari sati yaqin bo'lgan hududlarda sho'r tuproqlar va solontlar rivojlangan, yer osti suvlari yuqori darajada minerallashgan. Yangiyer shahri hududidagi tuproqlar har xil sho'rланish darajasida, suvda eruvchan tuzlar miqdori 0.565 dan 3.180% gacha, shahar uchun o'rtacha 2.140%.

Sirdaryo shahri hududi shu nomdag'i daryoning hozirgi vodiysida, uning ikkinchi toshqin ayvonida joylashgan.

Shahar hududida yer osti suvlarining maksimal darajada joylashgan chuqurligi shimol va sharqda 0,5-1,0 m dan shaharning janubiy yarmida 1-2 m gacha. Sharqda, janubi-g'arbda va

GEOGRAFIYA

shahar markazidagi kichik hududda vegetatsiya davrida suv toshqini sodir bo'ladi. Sirdaryo hududida yer osti suvlaring sathi rejimi sug'orish hisoblanadi. Birinchi maksimal shov-shuvli sug'orish davrida fevral-mart oylarida, ikkinchi maksimal - iyul-avgustda - vegetatsiya bilan sug'orish davrida kuzatiladi. Yer osti suvlari sathining minimal holati kuz-qish davrining oxirida, yuvilib sug'orish boshlanishidan oldin kuzatiladi. Yer osti suvlari sathining yillik tebranish amplitudasi 2,15 - 2,45 m.

Yer osti suvlaring minerallashuvi sug'orish kanallari yaqinida 980 mg/l gacha, ulardan uzoqlashganda esa 6 850 mg/l gacha (Sodiqov va Agzamov, 2006).

Sirdaryo hududi tuproqlari har xil sho'rланish darajasiga ega. Suvda eruvchan tuzlarning tarkibi 0,29 dan 2,75 foizgacha, shahar uchun o'ttacha 1,32 foizni tashkil qiladi. Tuproqning suvda eriydigan tuzlari eritmasining, shuningdek, yer osti suvlaring mineralizatsiya turi sulfat-gidrokarbonatdir.

Tuz tarkibiy qismlarining tarkibiga ko'ra, ko'rib chiqilayotgan shaharlarning yer osti suvlari ham, tuproqlari ham portlend sementidagi beton va temir-beton konstruktsiyalarga, ba'zi joylarda - sulfatga chidamli sement konstruktsiyalariga sulfat-qaytaruvchidir (Sodiqov va Agzamov, 2006).

Yuqorida ta'kidlanganidek, har yili minerallashgan suv bilan botqoqlanish aholi punktlari binolari katta zarar yetkazadi. Ushbu zararning ko'lamenti bilvosita aholining o'z turar-joylarini maqbul sharoitda saqlash uchun qilgan yillik xarajatlarining o'ttacha qiymati bilan hisoblash mumkin. Bunday baholash ushbu tadqiqotda ijtimoiy so'rov usuli bo'yicha qilingan (Lihačeva va boshqalar (tahrirlar), 2017). So'rov 2023-yilning mayidan oktyabrigacha o'tkazildi.

Yirik aholi punktlari aholisi ijtimoiy hamjamiyatni ifodalaydi va sotsiologik tadqiqot obyekti bo'lib xizmat qilishi mumkin. Odatda, iqtisodiy va vaqt chekllovleri tufayli bunday bir nechta jamoalarни uzluksiz tekshirish imkoniy yo'q, shuning uchun tanlanma so'rov nomasi bilan cheklaniladi (Kelley va boshq., 2003; Xi Meng va boshq., 2015). Umumiy aholisi 5000 nafardan ortiq ba'zi bir X atributining ulushini aniqlash uchun tanlanma hajmi quyidagi formula bo'yicha aniqlanadi (Berezin, 2018, Gorodilin, 2006):

$$n_1 = \frac{1}{\Delta^2} \quad (1)$$

Δ - ruxsat etilgan xato qiymati bo'lsa, u 0,954 ehtimollik bilan 5% (0,05) ga teng qabul qilinadi. Bizning holatlarimizda "X atributi" - bu binolarga zarar yetkazadigan suv bosgan aholi punktlari aholisining ulushi. Suv bosgan shaharlar aholisining umumiy soni 167 000 kishini tashkil etadi (1-jadval). Shunday qilib, umumiy aholi soni 167 000 kishini hisobga olsak, $n_1 = 1/0,05^2 = 400$ kishi. Binobarin, namlikning binolarga ta'sirini boshdan kechirgan aholi ulushini aniqlash uchun 400 kishi o'rtaida so'rov o'tkazish kerak.

1-jadval. Botqoqlanishga uchragan shaharlar aholisi to'g'risidagi ma'lumotlar

Shahar	Aholi, shaxslar
Guliston	90 000
Yangiyer	33 000
Sirdaryo	27 000
Shirin	17 000
Jami	167 000

Manba: <https://www.stat.uz/ru/ofitsialnaya-statistika/demography>

Umumiy aholining raqamli xususiyatlarini aniqlash uchun namuna hajmini rejalashtirish (masalan, o'ttacha ta'mirlash xarajatlari) quyidagicha amalga oshiriladi.

Avvalo, tanlanma so'rov o'tkaziladi (30 va undan ortiq respondentlar). Keyin, ushbu so'rov natijalariga ko'ra, namuna hajmi formula bo'yicha aniqlanadi (Berezin, 2018; Paniotto va Maksimenko, 2017):

$$n_2 = \frac{\sigma^2 \cdot t^2}{d^2} \quad (2)$$

bu yerda: n_2 - talab qilinadigan namuna hajmi; σ^2 - belgining dispersiyasi, olingan natijalarning kutilgan o'ttacha qiymatdan kutilgan o'ttacha og'ishi; t - ishonch darajasining koefitsienti (2 - 0,95 uchun, 3 - 0,99 uchun); d - bu omil uchun aniqlik darajasi.

Reprezentatsiya xatosi quyidagi formula bilan aniqlanadi:

$$M = \frac{\sigma}{\sqrt{n_i - 1}} \quad (3)$$

Bu yerda $\sigma = \sqrt{\sigma^2}$ standart og'ish, n_i - dastlabki suhbatni yakunlagan respondentlar soni.

Maksimal namuna olish xatosi quyidagi formula bilan aniqlanadi

$$\Delta = tM \quad (4)$$

So'rov nomo ma'lumotlariga ko'ra $n_1 = 400$ kishi umumiyligi aholining 60% ga yaqini (100, 200 kishi) botqoqlik tufayli uylarni har yili ta'mirlashga majbur. Qolgan 40 foizi shaharlarning yer osti suvlari darajasi past bo'lgan qismlarida yoki ko'p qavatli uylarning yuqori qavatlarida yashaydi.

Demografiâ..., 2023 ma'lumotlariga ko'ra, biz o'rtacha 5 kishilik oila tarkibini olamiz va yillik ta'mirlashni talab qiladigan uylar sonini aniqlaymiz $100, 200 : 5 = 20,040$ ta uy.

Namlik tufayli yillik ta'mirlash xarajatlari to'g'risida ma'lumot olish uchun aholiga botqoqlik va tuzlarning ko'tarilishi natijasida yuzaga keladigan qo'shimcha ta'mirlashlar soni haqidagi savollarni o'z ichiga olgan so'rov nomo berildi.

42 nafar fuqaro o'rtasida dastlabki so'rov o'tkazildi. Aniqlik darajasi $d \pm 0,36$ million so'm (o'rtacha arifmetik qiymatning 10%) deb qabul qilindi.

NATIJALAR VA MUHOKAMA

Yillik ta'mirlash xarajatlari bo'yicha dastlabki so'rov natijalari quyidagicha (2-jadval):

So'rov Sirdaryo viloyatining turli aholi punktlari aholisi o'rtasida o'tkazildi. So'rov natijalari 3-jadvalda keltirilgan.

3-jadval. Namlikdan aziyat chekayotgan Sirdaryo viloyati aholisi o'rtasida o'tkazilgan so'rov natijalari

Ko'rsatkich	Qiymat
Ta'mirlash turi	
- maxsus	21 . 3 %
- o'rtalik	46 . 8 %
- kosmetik	31 . 9 %
Yiliga o'rtacha ta'mirlash soni	1.3
1 ta ta'mirlashning o'rtacha qiymati, mln.so'm	3.1

Manba: Mualliflar tomonidan ishlab chiqilgan

Yuqoridagi ma'lumotlardan ko'rinish turibdiki, aholi punktlaridagi binolarning botqoqlanishga uchrashi turar-joy binolariga turli darajada zarar yetkazadi. Bir ta'mirlashning o'rtacha qiymati 3,1 million so'mni (taxminan 248 AQSH dollarri) tashkil etadi, bu ta'mirlashning o'rtacha yillik soni 1,3 tani hisobga olgan holda, har bir xonadonga 4,03 million so'm (322,4 AQSh dollarri) to'g'ri keladi.

Shunday qilib, botqoqlanish natijasida botqoqlanishga duchor bo'lgan barcha shaharlar aholisiga yetgan zarar quyidagicha:

$$U = 20040 \cdot 4,03 \cdot 10^6 = 80761,2 \cdot 10^6 \text{ so'm} = \text{yiliga } 6,62 \text{ mln AQSh dollarri} \quad (5)$$

Shuni ta'kidlash kerakki, ushbu hisob-kitobda kichikroq xarajatlar hisobga olinmagan.

Sirdaryo viloyati hududidagi aholi punktlarining botqoqlanishi muammosi sezilarli darajada namoyon bo'lib, aholi farovonligiga jiddiy ta'sir ko'rsatmoqda, chunki yillik ta'mirlash xarajatlari O'zbekistondagi o'rtacha oylik ish haqi, ya'ni O'zbekiston Davlat statistika qo'mitasining 2023 yildagi ma'lumotiga ko'ra, qariyb 319 AQSh dollarinidan oshadi.

Natijalar umuman olganda boshqa tadqiqotchilarning natijalariga mos keladi. Masalan, N. Arna va boshqalar (2022) tomonidan Bangladeshda olib borilgan tadqiqotlar shuni ko'rsatdiki, Dakka shahri uchun toshqinning umumiyligi zarari 314 uy xo'jaliklarining namunaviy hajmi uchun taxminan 48,500 AQSh dollarini tashkil qiladi. Bundan tashqari, mualliflar yuqori daromadli uy xo'jaliklari uchun yo'qotishlar hajmi o'rtalik va past daromadli uy xo'jaliklariga qaraganda kattaroq ekanligini aniqladilar. Hisoblash shuni ko'rsatadi, Dakkadagi qo'shimcha ta'mirlashning o'rtacha yillik qiymati 154,46 AQSh dollarini tashkil etdi. Bu ko'rsatkich Sirdaryo viloyatidagi natijasining

GEOGRAFIYA

yarmini tashkil etadi, buni O'zbekiston va Bangladeshdagi turli ijtimoiy-iqtisodiy ahvol va ta'mirlash materiallari narxi bilan izohlash mumkin.

XULOSA

O'tkazilgan tadqiqotlar shuni ko'rsatdiki, O'zbekiston Respublikasining Sirdaryo viloyatida bir qator aholi punktlarining botqoqlanishining doimiy geoekologik xavfi mavjud. Ushbu xavf aholining ta'mirlash uchun qo'shimcha xarajatlarida ifodalanadi. Boshqa tadqiqotchilarining ishlarini tahlil qilish kurashning asosiy chorasi sifatida botqoqlanishga duchor bo'lgan zonalarda drenaj tarmoqlarini rivojlantirish va malakali foydalanishni tavsiya qilish imkonini beradi. Sug'orishning iqtisodiy usullarini qo'llashni kengaytirishni ham tavsiya qilish mumkin. Qurilish vaqtida binolarning asosini tuz korroziyasidan va yuqori namlikdan himoya qilish choralarini ko'rish kerak. Ushbu tadqiqotda olingan pul riskini baholash qiyatlari zarur choralarini iqtisodiy asoslash imkonini beradi.

ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Aghimien E, Aigbavboa C., Aghimien D., 2018, Lagos shtatidagi qirg'oq bo'yidagi binolarda tuz reaktsiyasini o'rganish, Nigeriya - Sharh, *Sanoat muhandisligi va operatsiyalarni boshqarish bo'yicha xalqaro konferentsiya materiallari*, Pretoriya/Yohannesburg, Janubiy Afrika
2. Arna N., Paromita S., Ishrat I., 2022, Musson davrida shahar uy xo'jaliklarining botqoqlanishi natijasida kelib chiqqan yo'qotish va zararni baholash: Dakka, Bangladesh misolida o'rganish. *Tabiiy jurnali Xavflar*, 110 (2), 1-33. DOI : 110 . 10.1007/s11069-021-05003-1.
3. Begmatov I.A., Yu I chiyev DG, 2020 y. *Meliorativ rajonirovanie Sirdar' inskoy oblasti* (Eng . Sirdaryo viloyatini meliorativ rayonlashtirish), TIIIMSH, Toshkent
4. Berezin I. S. *Prakti cheskie sposoby postroeni â vyborki v issledovani ya hi oprosah* (O'zb. *Tadqiqotlar va so'rovlarda namuna qurishning amaliy usullari*) <http://www.elitarium.ru/issledovanie-vyborka-reprezentativnost-dostovernost-doveritelnyj-interval-formuly/> . (kirish mumkin 2 2018 yil iyun)
5. Demografiya Gosudarstvennoe agentstvo statistika Respublikи Uzbekistan, <https://uz.sputniknews.ru/20220605/goskomstat-opisal-tipichnuyu-uzbekistanskuyu-semyu--25013804.html> (murojaat vaqt 2023 yil 20 yanvar)
6. Gorodilin SK, 2006 yil, *Prikladnye sotsiologik issledovani ya v sfere fizicheskoy kultury i sporta* (ingliz. *Jismoniy tarbiya va sport sohasida amaliy sotsiologik tadqiqotlar*), UMU GrGU im . Yanki Kupaly , Grodno
7. Karimov A ., Saloxiddinov A., Gracheva I., Umurzoqov R., Ortiqov Q., 2019, Arid muhitda aholi punktlarini qayta ko'rib chiqish: O'zbekistondan amaliy tadqiqotlar, *E3S Web of Conferences FORM-2019*, 97, 05052, <https://doi.org/10.1051/e3sconf/20199705052>
8. Qosimova D. , 2023 yil, Sosto ya nie zdaniy I sooru zh eniy d zasol yo nnyh I prosado ch nyh gruntah (Ing. Sho'rlangan va cho'kma tuproqlarda binolar va inshootlarning holati) , *Xalqaro*
9. Kelley K., Klark B., Braun V., Sitzia J. 2003, So'rov tadqiqotlarini o'tkazish va hisobot berishda yaxshi amaliyot. *Sog'liqni saqlash sifati uchun xalqaro jurnal*, 15 (3), 261-266
10. Lihacheva OV, Skrigan A. Yu . va Sh karubo AD (muharrirlar), 2017, *Metod kejsov va kompleksli ijtimoiy'no - èkologicheskikh issledovaniyah* (Eng. Case Method in Integrated Socio-Ecological Research), Pskovskiy gosudarstvennyj universiteti, Pskov
11. Sodiqov Ya.S. , Agzamov I.A., 2006 yil, Raschetnyj solevoj balans na territorii Uzbekistana (Ing. O'zbekiston hududidagi tuz balansi), *Geologiya ya va mineral resurslar jurnali* , 4, 33-35
12. Paniotto V . I ., Maksimenko V . S . *Kolicestvennye metodi v sotsiologiya českix issledovani âh* (O'zb. *Sotsiologik tadqiqotlarda miqdoriy metodlar*) https://web.stanford.edu/dept/communication/faculty/krosnick/Survey_Research.pdf (murojaat vaqt 13-yun 201 7-yil)
13. Shahar sho'rлиgi: uxlayotgan gigantmi? 2004 yil, Veb-sayt: Avstralija parlamenti. https://www.aph.gov.au/parliamentary_business/committees/senate/environment_andcommunications/completed_inquiries/2004-07/salinity/report/c06 (2023-yil 10-novabrda murojaat qilingan)
14. Yunusova O.M., Mirzahodjaev T.R., 2018, Gradostroitelnaya osenka zasol yo nnosti gruntov va mineralizatsiya gruntovyh vod territorii gorodov Guliston, Yangier i Sirdaryo (O'zb. Guliston, Yangiyer va Sirdaryo shaharlari hududining tuproq sho'rliги va yer osti suvlaringin sho'rланishini shaharsozlik baholash). *Vestnik O'zMU* , 3/1, 463-465
15. Wilson SM, 2003 yil, Qishloq va shahar landshaftlarida sho'rланishning infratuzilmaga ta'sirini tushunish va oldini olish <http://southburnett.com.au/pdfs/salinitynov2003.pdf> (2024 yil 7- yanvarda murojaat qilingan)
16. Xi Meng, Weijie Liang va boshqalar., 2015 yil, Xitoyning g'arbiy qishloq joylarida yashash muhiti va energiya iste'moli bo'yicha so'rov tadqiqoti. *Procedia Engineering*, 121, 1044 - 1050
17. Yun-Fang Ning , Wen-Yi Dong, Lu-Sheng Lin, Qian Zhang, 2017 yil, Xitoyda shahar botqoqlanishi va shimgichli shahar texnologiyasining sabablarini tahlil qilish, *IOP Conf. Ser.: Yer muhiti. Ilmiy* .., 59, 012047 DOI:10.1088/1755-1315/59/1/012047



УО'К: 378.1

**BO'LAJAK PEDAGOGLARDA INFORMATSION-ANALITIK KOMPETENTLIKNI
RIVOJLANTIRISHNING PEDAGOGIK-PSIXOLOGIK XUSUSIYATLARI**

**ПЕДАГОГИЧЕСКИЕ И ПСИХОЛОГИЧЕСКИЕ ОСОБЕННОСТИ РАЗВИТИЯ
ИНФОРМАЦИОННО-АНАЛИТИЧЕСКОЙ КОМПЕТЕНТНОСТИ У БУДУЩИХ ПЕДАГОГОВ**

**PEDAGOGICAL AND PSYCHOLOGICAL FEATURES OF DEVELOPING
INFORMATION-ANALYTICAL COMPETENCE IN FUTURE EDUCATORS**

Adashev Ilhomjon 
Farg'ona davlat universiteti

Annotatsiya

Mazkur maqolada bo'lajak tarix o'qituvchilari hozirgi global axborotlar asri sharoitida tarixni o'rganish jarayonida yuzaga kelishi mumkin bo'lgan holatlarni tahlil etiladi. Talabalarning har qanday sharoitda ham tarixni anglashda uning tashkilotchisi va faol ishtirokchisi, boshqacha aytganda subekti bo'lgan inson qobiliyatini, aql-zakosini, intellektual imkoniyatlarini va umuman olganda insoni qadriyatlarni bilish, unga xolis baho berish uchun fikrga aylanayotgan qarashlar to'g'ri asoslangan negiz tufayligina shakllanishi mumkinligi haqidagi xulosalar beriladi. Shuningdek, inson tufayligina tarixiy jarayonlar haqiqiy ma'noda o'zining insonparvarlik mohiyatini, umuminsoniy qadriyatlarni to'liq namoyon etishi mumkinligi ochib beriladi.

Аннотация

В данной статье анализируются ситуации, с которыми могут столкнуться будущие учителя истории в процессе изучения истории в условиях современного глобального информационного общества. Делается вывод о том, что студенты должны быть организаторами и активными участниками понимания истории, независимо от обстоятельств. Это требует осознания человеческих способностей, интеллекта, интеллектуальных возможностей и человеческих ценностей в целом, которые могут формироваться только на хорошо обоснованной основе для разработки взглядов и предоставления объективной оценки. Также раскрывается, что исторические процессы могут по-настоящему выразить свою гуманистическую сущность и универсальные ценности только через человека.

Abstract

This article analyzes the situations that future history teachers may encounter in the process of studying history in the current era of global information. It concludes that students must be the organizers and active participants in understanding history, regardless of the circumstances. This requires recognizing human abilities, intellect, intellectual capabilities, and human values in general, which can only be formed on a well-founded basis for developing viewpoints and providing an objective assessment. Furthermore, it is revealed that historical processes can only genuinely express their humanitarian essence and universal values through human beings.

Kalit so'zlar: Jamiyat, telekommunikatsiya, analitik tafakkur, raqamli texnologiyalar, kompyuter axborot tizimlari, global informatsiya, ijtimoiy fikr.

Ключевые слова: Общество, телекоммуникации, аналитическое мышление, цифровые технологии, компьютерные информационные системы, глобальная информация, общественное мнение.

Key words: Society, telecommunications, analytical thinking, digital technologies, computer information systems, global information, social opinion.

KIRISH

Hozirgi kunda telekommunikatsiyaning jadal rivojlanishi natijasida axborotlarni tez va ishonchli tarzda qabul qilish murakkablashib bormoqda. Ayniqsa biror zarur axborotni yetkazishda uning ishonchliligi, yetkazuvchidan o'ziga xos kompetentlikni talab etadi. Shuning uchun pedagoglarda informatsion va analistik kompetentlikni integratsiyalash, ularni o'zaro aloqadorlikda rivojlanirish vazifalari dolzarblik kasb etib bormoqda. Bu esa axborotlarni chuqur analistik tahlil qila oladigan, axborotlarni saralay oladigan va ishonchli manbalarni ajrata oladigan kadrlarga bo'lgan ehtiyojni yuzaga keltirmoqda. Bu esa oliy ta'lim muassasalari bitiruvchi yoshlarini tarbiyalash hajmini kengaytirish bilan birga sifatli va samarador ta'limni tashkil etish orqali zamonaviy bilim va

ILMIY AXBOROT

ko'nikmalarga, bugungi zamon talab qilayotgan kompetentlikka ega bo'lgan kadrlarni tayyorlash tizimini ham qayta ko'rib chiqishni, isloh qilishni talab etmoqda. Oliy ta'lif muassasalarida yetuk kadrlar tayyorlash bilan birga ularni informatsion va analitik tafakkur ko'nikmalarini ham rivojlantirish talabi ham yuzaga chiqmoqda. Bu esa, pedagoglar tayyorlash tizimini yangicha yondashuvlar bilan boyitishni, unga rivojlangan davlatlar tajribasini qo'llashni hamda ularda informatsion-anatilitik kompotentlikni rivojlantirish amaliy ahamiyat kasb etmoqda.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR

Dunyodagi ilg'or xorijiy oliy ta'lif markazlaridagi tadqiqotlar xulosalariga ko'ra, zamonaviy o'qitishning turli usullari sohalar va kasblarga qarab, samarali yoki samarasiz ekanligi e'tirof etilayotgan bo'lsa-da, rivojlangan xorijiy davlatlar (AQSH universiteti (<http://www.ou.nl>), Isroil ochiq universiteti (<http://www.open.ac.uk>), Ispaniyaning masofadan o'qitish milliy universiteti (<http://www.ceac.com>), Xitoyning Shaxnay teleuniversiteti (ochiq turdag'i o'qitish Agentligi (<http://www.ola.edu.au>)) da olib borilayotgan izlanishlar tahlili ta'lif samaradorligini oshirishda, mediata'lif vositalaridan foydalanish orqali o'qitiladigan darslarni takomillashtirish zamon talabi ekanligiga dalolat beradi. Tadqiqotlar mediata'lif sharoitida bo'lajak kadrlarda informatsion-analitik kompetentlikni rivojlantirish zarurligini ham xulosa qilinmoqda.

G'arb mamlakatlarida analitik tafakkurni rivojlantirish masalasiga alohida e'tibor qaratilib kelinayotganligi uchun ham jamiyatlarda, ta'lif tizimida yuqori samaradorlikni ko'rish mumkin. Analitik tafakkur masalasi ko'plab xorijlik olimlar tomonidan, xususan, D.Rusta, X.Gloka, D.Mak-Shi, S.Shumeyker, Yan Fan, V.Xutmaxer, J.Xurley Patrik, M.Salmon, Robert J.Fogelinlarning tadqiqotlarida mantiqiy, tanqidiy fikrlash va argumentlarni isbotlash metodikasi masalalari bayon etilgan.

NATIJALAR VA MUHOKAMA

Ma'lumki, inson ijtimoiy tabiatiga ko'ra o'z turmush tarzini o'zi yo'lga qo'yadi, o'zini o'zi boshqaradi. O'z xayollari, orzu-umidlari va maqsadlarini ro'yobga chiqarish jarayoni orqali mavhum holatlarni real voqelikka aylantira oladi, ularni manfaat orqali moddiylashtira oladi va foydalanadi. Yaxshilik va yomonlik, saxiylik va baxillik, ko'ngilchanlik va bemehrlik, muhabbat va nafrat uning butun ma'naviy-ruhiy qadriyatini belgilaydi.

Bo'lajak tarix o'qituvchilarini tarixni o'rganish jarayonida ana shu holatlarni boshdan kechiradi, o'zining yaxlit olamini vujudga keltiradi. Shuningdek, talabalar har qanday sharoitda ham tarixni anglashda uning tashkilotchisi va faol ishtiroychisi, boshqacha aytganda subyekti bo'lgan inson qobiliyatini, aql-zakosini, intellektual imkoniyatlarini va umuman olganda insoniy qadriyatlarini bilish, unga xolis baho berish uchun fikrga aylanayotgan qarashlar to'g'ri asoslangan negiz tufayligina shakllanishi mumkinligi haqidagi xulosaga kelishlari lozim. Chunki inson tufayligina tarixiy jarayonlar haqiqiy ma'noda o'zining insonparvarlik mohiyatini, umuminsoniy qadriyatlarini to'liq namoyon etishi mumkin.

Bo'lajak tarix o'qituvchilarini insoniyat tarixini o'zlashtirish jarayonida yana bir muhim jihat – individuallikning ijtimoiy taraqqiyotga ta'sirini anglab olishlari zarur. Individda ayrimlik bilan umumiylilik uyg'un holda mavjud bo'ladi. Umumiyliddan ayrimlikni farqlash uchun individ tushunchasi qo'llaniladi. Umumiylidagi ayrimlik – individuallik quyidagilarda namoyon bo'ladi: a) muayyan ijtimoiy guruh, jamoa, tashkilotga uyushgan odamlarning o'ziga xos fe'l-atvorlari; b)o'zini tashkil etgan muayyan ijtimoiy guruh kishilarining o'zlariga xos ijtimoiy belgilari, sotsial qiyofalari.

O'z navbatida individ shaxsga doir sifatlarni namoyon eta olishi zarur. Chunki individni o'ziga xoslik, betakrorlik sifatlasa, shaxsni bunday o'ziga xoslik bilan birga, erkin, ijodiy fikrlash va muayyan vaziyatda mas'uliyatni o'z zimmasiga olib, mustaqil harakatlana olish qobiliyati kabi sifatlar belgilaydi. Shaxs o'z shaxsiy sifatlari bilan muayyan ijtimoiy harakatga ta'sir ko'rsatish darajasiga qarab qadrlanadi yoki qadrsizlanadi. Muayyan tarixiy sharoitlarda yirik ijtimoiy harakatlarga boshchilik qilganlar tarixiy shaxs sifatida o'zidan yaxshi yoki yomon nom qoldiradi. Bo'lajak tarix o'qituvchilarini tarixiy shaxslarning hayot yo'li va faoliyatini o'rganish orqali yuqorida ta'kidlanganidek, ularni ijobjiy yoki salbiy tarzda baholaydilar. Masalan, Muqanna, Mahmud Torobi, Jaloliddin Manguberdi, Temur Malik, Amir Temur, Mirzo Ulug'bek, Buyuk Karl, Yustinian kabi tarixiy shaxslar jamiyat taraqqiyotini tezlashtirgan bo'lgan bo'lsa, Sulton Ali Mirzo, Zuxrobegi og'a, Iskandar Sulton, Ubaydullahxon II, Abulfayzxon kabilar esa jamiyat taraqqiyotini sekinlashtirganlar. Talaba mazkur holatning yuzaga kelishida tarixiy shaxslarda tarkib topgan dunyoqarash hamda

ILMIY AXBOROT

shu asosda vujudga kelgan imon yo'nalishi va darajasi ma'lum rol o'ynaganini, ulardagi insoniy fazilatlar va qusurlar o'zi boshchilik qilayotgan harakatga ijobiy yoki salbiy ta'sir ko'rsatganliklari haqidagi xulosaga keladilar.

Bo'lajak tarix o'qituvchilari informatsion-analitik ko'nikmalar asosida o'tmish saboqlarini o'rganishga ehtiyojni kuchaytiruvchi qator asoslar mavjud. Bu bevosita insoniyatning tarixiy tajribasini o'rganish, hayot mantig'ini anglash bilan bog'liq bo'lgan serqirra va murakkab jarayondir. Aynan tarixiy tajriba ijtimoiy dunyoni o'quvchi tomonidan ma'naviy, ma'rifiy, ruhiy, amaliy o'zlashtirish va bilishni yangi bosqichga ko'taradi. Natijada talabada nafaqat bilimlar, balki qadriyatlar haqidagi tasavvurlar ham o'ziga xos tarzda shakllana boshlaydi. Atabalarda o'tmishni anglashga doir bilimlar va qadriyatlar bevosita tarixiy hodisalarni kuzatish, ularni tahlil etish hamda zarur xulosalar chiqarish natijasida yuzaga keladi. Tarixiy tajriba, tarixiy jarayonlardan chiqariladigan xulosalar faqatgina bilimlar va qadriyatlarning tayyor andozasini o'zida ifoda etibgina qolmay, shu bilan birga talabalar tomonidan dunyoni amaliy o'zlashtirish jarayonida ma'naviy qudrat vazifasini bajaradi. Natijada talabalarda demokratik jamiyat fuqarosi uchun xos bo'lgan yaratuvchanlik, buniyodkorlik fazilatlari rivojlanadi, aniqrog'i tarixiy tajriba ana shunday sifatlarni rivojlantirish uchun ruhlantiruvchi, ilhomlantiruvchi, da'vat etuvchi vosita rolini bajaradi.

Bo'lajak tarix o'qituvchisining tarixiy tajribani o'zlashtirishida o'sha davr bilan muloqot(dialog)ga kirisha olish muhim ahamiyat kasb etadi. Talaba tarixiy voqelik bilan tanishish jarayonida quyidagi savollarga javob izlaydi: «Nima uchun shunday holat yuzaga keldi?», «Mazkur jarayonning yuzaga kelishi sabablari nimada?», «Tarixiy voqealar rivojini qanday tarzda o'zgartirish mumkin edi?», «Men o'sha voqelikning ishtirokchisi bo'lganimda qanday yo'l tutgan bo'lar edim?», «Mazkur vaziyatda odamlarga qanday yordam berishim mumkin?» va boshqalar.

Umumjahon tarixini o'rganish, umuminsoniyat o'tmishini tahlil etish orqali bo'lajak tarixchida inson haqidagi tushunchalar boyiydi, inson faoliyati, uning imkoniyatlari xususidagi xulosalari kengayishiga yordab beradi. Talaba insoniyat tarixini, o'z ajdodlarining tarixini o'rganish orqali olamni o'rganadi, olam haqidagi tasavvurlari boyib, aniq xulosalar chiqara oladi. Mazkur jarayonda tarixning tarbiyaviy ahamiyati ayniqsa, yorqin namoyon bo'ladi.

Bugungi global informatsion kurash sharoitida axborotni axborotdan, yangilikni targ'ibotdan, ma'lumotni bilimdan farqlash juda muhim hisoblanadi. O'tgan asrning 40-yillarda «Reyter» agentligini boshqargan Kristofer Chansellor «yangilikni targ'ibotdan farqlash zarurligini ta'kidlagan edi. Targ'ibot boshqa narsa, yangilik esa mutlaqo boshqa narsa. Inglizcha yoki amerikacha yangiliklar bo'lmaydi, u xalqaro tovardir» [4],- deb yozgan edi. Bugun mutlaqo boshqacha sifatiy holat yuzaga keldi. Har kuni dunyoda millionlab voqealar sodir bo'ladi. Ammo kishilar diqqatiga axborot muayyan ijtimoiy-siyosiy kuchlar manfaatidan kelib chiqib e'tibor qaratgan masalalarga havola etiladi. Bu ularning hodisalarni yoritishning ustuvor yo'nalishlarini belgilab berishini, muayyan ma'lumotlarni olish, talqin qilish, baholash va tarqatish orqali fuqarolarda tegishli fikr va xulosalar shakllanishiga xizmat qilishini ko'rsatadi. Bu medianing ijtimoiy fikrni kerak bo'lgan shaklga yo'naltira olishi, u bilan manipulyatsiya qila olishidan dalolat beradi. Mazkur jarayonda soxta, to'qib chiqarilgan axborotni xaqiqat sifatida taqdim etish, voqelikni bir yoqlama taqdim etish yoki buzib ko'rsatish, reallikni adekvat qabul qilishga yordam beradigan muhim elementlarni yashirishga alohida e'tibor berilishini ta'kidlash zarur. Bo'lajak tarix o'qituvchilarini ham birinchi bo'g'in axborotni qabul qiluvchi va tarqatuvchi sifatida mas'uliyatni anglashlari, o'zlarida axborotlarga tahliliy munosabatni shakllantirish va yashirin ma'nosini anglay bilimshlari talab etiladi.

Har bir insonning axborotdan foydalanish, uni olish va tasarruf etish huquqi qonun bilan kafolatlangan bo'lsada, bu ayrim ijtimoiy tartibotni, xavfsizlik qoidalarini buzishi qonun bilan taqilanganadi. Bu esa, ulardan habardor bo'lish va ular bilan axborot almashishda ehtiyyotkor bo'lish talab etiladi. Qonun uni bilamaslikdan himoya qila olmagani kabi, tarli axboriy tahdidlarga uchrab, yoki yolg'on axborot ta'siriga tushib qolish javobgarlikka tortilishi mumkin. Shuning uchun ham ko'proq xorijiy saytlar va sahifalardan ko'proq ma'lumotlar oluvchi, almashuvchi bo'lajak tarix o'qituvchilarida axborotlarga tahliliy qarash, analitik tahlil qilish ko'nikmalarini rivojlantirish bu ta'sirlarni oldini olishi mumkin.


Axborotlarga tahliliy munosabatini shakllantirishga doir xorijiy tajribalar asosida bir qator rivojlangan mamlakatlarda nosog'lom axborot oqimlarining oldini olish, bartaraf etish va unga

ILMIY AXBOROT

qarshi kurashishning o'ziga xos qonunchilik tizimi yaratilganligidan dalolat beradi. Jumladan, bu borada xalqaro amaliyotdagi «Kiber jinoyatlar to'g'risida»gi konvensiya, «Voyaga yetmaganlar uchun xavfsiz internet va onlayn resurslarni joriy qilish to'g'risida»gi Yevropa Ittifoqi Parlamenti Assambleyasining tavsiyalari, Germaniyaning «Talabalarni himoyalash to'g'risida»gi, Litvaning «Voyaga yetmaganlarni ommaviy axborotning salbiy ta'siridan himoyalash to'g'risida»gi qonunlarini misol qilib keltirish mumkin [1]. Shuningdek, AQShda o'n yetti yoshgacha bo'lgan bolalarni jismoniy va ruhiy rivojlanish jarayonida internetning salbiy ta'siridan himoya qilishni tartibga soluvchi normalarni o'zida aks ettirgan qonun ham qabul qilinadi. Mazkur qonun «voyaga yetmaganlar uchun zararli bo'lgan rasmlar, tasvirlar, grafiklar, audiomateriallar, videofayllarni internet tarmog'iда joylashtirganlik va tarqatganlik uchun javobgarlik masalalarini nazarda tutdi. Shu bilan bir qatorda qonun ota-onalar, tarbiyachilar, sanoat vakillarining voyaga yetmaganlarni internetdagи salbiy axborotlardan himoya qilishga majburligini belgilab qo'ydi» [6]. Shuningdek, tadqiqot natijalari bo'lajak tarix o'qituvchilarida axborotlarga tahliliy munosabatini shakllantirish – bo'lajak tarixchi sifatida bevosita tarixiy haqiqatlarni chuqur tahlil qilish orqali ta'sir ko'rsatdi. Shu bilan birga aynan ijtimoiy ongda axborotlarga tahliliy munosabatini shakllantirish millat ma'naviyatini himoya qilish bilan bog'liq bo'lib, mazkur holatda o'qitishning yangicha texnologiyalarini ishlab chiqish, o'qiish metodikasini takomillashtirish va zamonaviy bilimlarni chuqur o'zlashtirishini talab etadi [2, 3].

Aralash ta'llimning muhim hususiyalaridan biri bo'lajak tarix o'qituvchilarida informatsion-analitik kompetensiyani rivojlantirishga xizmat qilishidir.

Bo'lajak tarix o'qituvchilarining informatsion-analitik kompetensiyasi deganda sifat jihatdan yangi bilimlarni o'zlashtirish maqsadida xilma-xil tur va shakldagi axborotlarni analitik-sintetik qayta ishlash jarayonida mavjud bilim, ko'nikma va shaxsiy tajribasini qo'llay olish qobiliyati tushuniladi. Shuningdek, o'z navbatida informatsion-analitik kompetensiya metodik jihatdan faoliyatga yo'naltirilgan yondashuvga asoslanishni taqozo etadi. Faoliyatga yo'naltirilgan yondashuv nuqtai nazaridan informatsion-analitik kompetensiyaning uch komponentini ajratib ko'rsatish mumkin: vositali, amaliy va mustaqil izlanishga doir (1-rasmga qarang).



1-rasm. Informatsion-analitik kompetensiya komponentlari

Vositali komponent axborot bilan ishlashning sodda texnologiyalari bilan ishlashni talab etadi: axborotlarni izlash va to'plash, saqlash, qayta ishlash, taqdim etish, axborotni tarqatish va axborot xavfsizligini ta'minlash.

Amaliy komponent informatsion-analitik faoliyatni amalga oshirish metod va vositalarini tanlashda bo'lajak tarix o'qituvchisiga erkinlik va mustaqillikni taqdim etadi.

ILMIY AXBOROT

Mustaqil izlanishga doir komponent mustaqil ravishda muammoni qo'yish, muammoni hal etish bo'yicha informatsion-analitik faoliyatni amalga oshirish muddatlarini belgilash, axborotlarni izlash jarayonida to'plangan materiallarni tahlil qilish metodlarini aniqlashtirish va tanlash bo'yicha butun bor salohiyatini ishga solishni talab etadi.

Bo'lajak tarix o'qituvchilarida informatsion-analitik kompetensiyani rivojlantirish quyidagi metodik shart-sharoitlarni talab etadi.

Birinchi metodik shart – bo'lajak tarix o'qi faoliyat texnologiyasini o'rgatish. Ya'ni, muammoni qo'yish, hal etish, amalga oshirish kabi qaror qabul qilish bosqichlarini aniqlashtirishda vositali, amaliy va mustaqil izlanishga doir darajalarga asoslanishni talab etadi.

Ikkinci metodik shart – o'quv jarayoniga talabalarni axborotlarni idrok etishda individual xususiyatlarni hisobga olish, tahlil etish (tabaqalashgan kognitiv uslub) va umumlashtirish (integral kognitiv uslub)ni talab etuvchi tabaqalashtirilgan amaliy topshiriqlarni o'quv jarayoniga tatbiq etish.

Uchinchi metodik shart – o'quv jarayonida maxsus axborot-tahliliy tizimlar, dasturiy vositalardan foydalanish.

Bo'lajak tarix o'qituvchilarida informatsion-analitik kompetensiyani rivojlantirish o'z navbatida shaxs axborot xavfsizligi bilan bog'liq bo'lib, talabaning mavjud egallangan tajribalarni hisobga olgan holda axborotni ongli idrok etish, tahlil qilish, baholash qobiliyati bilan tavsiflanuvchi shaxsiy qadriyatga yo'naltirilganlik nuqtai nazaridan axborot tahdidlariga qarshi kurashishga tayyorgarligini ifoda etadi.

Mazkur ta'rifga tayangan holda, shaxs axborot xavfsizligining quyidagi komponentlarini ajratib ko'rsatish mumkin: kognitiv (axborot muhitidan keladigan xavf-xatarlar haqida bilimlarga ega bo'lish, axborotni tahlil etish, baholash qobiliyati), aksiologik (umuminsoniy qadriyatlar haqidagi tasavvur, mazkur qadriyatlar bilan bog'liqlikda xulq-atvor modelini belgilash olish ko'nikmasi), kommunikativ-faoliyatga doir (boshqalarning fikri, nuqtai nazarlariga tolerant munosabatda bo'lish, vaziyatga baho berish qobiliyati). Mazkur komponentlar mazmuni shaxs axborot xavfsizligini ikki qismdan iborat tuzilma sifatida ko'rib chiqish imkonini beradi: shaxsga (shaxs sifatlari, motiv va qadriyatları tizimi) va faoliyatga yo'naltirilgan (tajriba, bilim, qobiliyat).

Zamonaviy tadqiqotlar tahlili bo'lajak kadrlarda informatsion-analitik kompetentlikni rivojlantirish muammosini hal etishga doir uch yondashuvni ajratib ko'rsatish imkonini beradi: tashqi muhit ta'siri, shaxsiy faollik va integrativ [5].

Tashqi muhit ta'siri vakolatlari shaxslar tomonidan zararli axborotlar bilan tanishishni cheklash, uni tarqatishni ta'qilashda o'z aksini topadi. Tashqi ta'sir asosidagi ta'qilarga maxsus dastur va xizmatlar asosida talabalarning axborotlarni ko'r-ko'rona ko'chirib olishini dalillar asosida isbotlashni misol qilib keltirish mumkin. Chunki aslida yosh qancha katta bo'lsa, axborotlarni nazorat qilish imkoniyati kamayadi, uning ustiga inson kundalik hayotda turli axborot tahdidlariga to'xtovsiz duch keladi. Agar shaxsda uning munosabati va xulq-atvorini belgilab beruvchi qadriyatlar tizimi qaror topmagan bo'lsa, u axborot tahdidlarida oldida himoyasiz qoladi. Ma'lumki, faqat talabalarga ta'qiq qo'yish orqali mazkur jarayonda maqsadga erishib bo'lmaydi va ushbu holat axborot muhitida shaxs xavfsizligini ta'minlash uchun qo'shimcha usul va vositalarni talab etadi. Ana shu nuqtai nazaridan shaxsiy informatsion madaniyatni shakllantirishda shaxs faolligi alohida ahamiyat kasb etadi.

XULOSA

Xulosa qilganda, bo'lajak tarix o'qituvchilarida informatsion-analitik kompetentlikni rivojlantirishga turli omillar ta'sir ko'rsatadi va ularni umumiyligi holatda oliy ta'limda tizimlashtirish, bu jarayonga qaratilgan innovatsion pedagogik jarayonni yaratish zarur hisoblanadi. "Kompetensiya" va "kompetentlilik" tushunchalariga berilgan ta'riflarda kompetensiya muayyan faoliyatda talab qilinadigan xulq-atvor, o'zini tutish, kompetentlilik esa ushbu talabga moslik darajasi, ya'ni kompetensiyani namoyish qilishning pirovard natijasi ekanligi kelib chiqadi. "Informatsion-analitik kompetentlik" integratsiyalashgan kompetensiya ko'rinishlaridan biri hisoblanadi. Bugungi kunda bir kompetensiyanı shakllantirishdan ko'ra, bir nechta kompetensiyanı uyg'unlikda shakllantirish va rivojlantirish muhim vazifalardan biri bo'lib qolmoqda. "Informatsion-analitik kompetentlik" informatsion madaniyat va analitik tafakkur asosida shakllantiriluvchi bilim va ko'nikmalarning yuksak ko'rinishi hisoblanadi.

ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Ахборот назарияси // Назаров Қ. Жаҳон фалсафаси қомуси. 1 жилд. – Ўзбекистон файласуфлари миллий жамияти нашриёти, 2016. – 117 бет.
2. Загвязинский В. И. Наступит ли эпоха Возрождения? Стратегия инновационного развития российского образования. 2-е изд. – М.: Логос, 2015. – 44 с.
3. Захарова И. Г. Информационные технологии в образовании // Образование и наука. – М., 2015. - № 5. – С.108.
4. Кастельс Мануэль. Информационная эпоха: экономика, общества и культура. Пер. с анг. П.И.Шкаратона. –М., 2000, -С.342.
5. Маматова Я, Сулайманова С. Ўзбекистон медиатаълим тараққиёти йўлида. Ўқув қўлланма.– Тошкент.:«Extremum-press», 2015. –Б.83.
6. 105th Congress Report House of Representatives 2d Session 105 775 Child online protection act October 5, 1998.



УО'К: 101.1

**IJTIMOIY VA HUQUQIY TARBIYA UYG'UNLASHUVINING IJTIMOIY-FALSAFIY
NAZARIYALARI TAHЛИLI**

**АНАЛИЗ СОЦИАЛЬНЫХ И ФИЛОСОФСКИХ ТЕОРИЙ ГАРМОНИЗАЦИИ
СОЦИАЛЬНОГО И ПРАВОВОГО ВОСПИТАНИЯ**

**ANALYSIS OF THE SOCIAL AND PHILOSOPHICAL THEORIES OF HARMONIZING
SOCIAL AND LEGAL EDUCATION**

Ergasheva Zilola Abduxakimovna 
Farg'ona davlat universiteti mustaqil tadqiqotchisi

Annotatsiya

Maqolada O'zbekistonda ijtimoiy va huquqiy tarbiyani uyg'unlashtirishning ilmiy-metodologik asoslari, Yangi O'zbekistonda ijtimoiy va huquqiy tarbiya uyg'unlashtuvining ijtimoiy-falsafiy zarurati, O'zbekiston taraqqiyotida ijtimoiy va huquqiy tarbiya ijtimoiy zaruratining istiqbollari o'r ganilgan. Shuningdek, ijtimoiy va huquqiy tarbiya uyg'unlashtuvining ijtimoiy-falsafiy nazariyalari tahlil qilingan.

Аннотация

В статье рассматриваются научно-методологические основы гармонизации социального и правового воспитания в Узбекистане, социально-философская необходимость интеграции социального и правового воспитания в Новом Узбекистане, а также перспективы социального и правового воспитания как социальной необходимости в развитии Узбекистана. Кроме того, анализируются социальные и философские теории, связанные с гармонизацией социального и правового воспитания.

Abstract

The article examines the scientific and methodological foundations for harmonizing social and legal education in Uzbekistan, the social and philosophical necessity of integrating social and legal education in the New Uzbekistan, and the prospects of social and legal education as a social necessity in the development of Uzbekistan. Additionally, it analyzes the social and philosophical theories related to the harmonization of social and legal education.

Kalit so'zlar: tarbiya, ijtimoiy va huquqiy tarbiya, dinamika, uyg'unlashtirish, ijtimoiy davlat, tizimli-funksional tahlil, nazariy-metodologik asos, taraqqiyot, huquqiy ta'lim, ijtimoiy qadriyat, madaniyat konteksti.

Ключевые слова: воспитание, социальное и правовое воспитание, динамика, гармонизация, социальное государство, системно-функциональный анализ, теоретико-методологическая основа, развитие, правовое образование, социальные ценности, культурный контекст.

Key words: education, social and legal education, dynamics, harmonization, social state, systemic-functional analysis, theoretical-methodological basis, development, legal education, social values, cultural context.

KIRISH

Zamonaviy jamiyatda ijtimoiy institutlarning bir butun tizimi mavjud. Ijtimoiy institut jamiyat a'zolarining ijtimoiy resurslardan foydalanish jarayonida vujudga kelgan u yoki bu ehtiyojlarini (iqtisodiy, siyosiy, madaniy, diniy va boshqa) qondirish uchun birgalikdagi faoliyatlarining tarixan shakllangan shaklidir. Tarbiya ijtimoiy institut sifatida jamiyat a'zolarining ijtimoiylashuvini amalga oshirish, madaniy va ijtimoiy qadriyatlarini targ'ib etish, ijtimoiy ehtiyojlarni qondirish uchun sharoit yaratish umuman olganda jamiyatning faol a'zolarni yetishtirish uchun paydo bo'lgan. Tarbiya ijtimoiy institut sifatida muayyan jamiyatning muayyan rivojlanish bosqichida paydo bo'ladigan fenomen hisoblanadi.

ADABIYOTLAR TAHЛИLI VA METODLAR

Jamiyatda fuqarolarning ijtimoiy va huquqiy tarbiyasini shakllantirish masalalari nafaqat huquqshunoslar, balki sotsiologlar, tarixchilar, faylasuflar, siyosatshunoslarda ham katta qiziqish uyg'otmoqda. Olimlar tomonidan ilgari surilayotgan huquqiy davlat, fuqarolik jamiyatini shakllantirish konsepsiylarida fuqarolar ijtimoiy-huquqiy savodxonligini oshirish masalasiga

ILMIY AXBOROT

alohida e'tibor qaratilgan, ushbu yo'nalishdagi zamonaviy tendensiyalar tahlil etilgan. Huquqiy davlat, huquqiy savodxonlik va qadriyat tushunchasi, uning o'ziga xos xususiyatlarini shakllantirishga xizmat qiluvchi omillar, bu borada mavjud muammolar tahlili S.S.Alekseyev, V.G.Afanasyev, A.M.Vasilyev, T.V.Kuxaruk, D.A.Kerimov, X.Kyots, V.Knapp, N.I.Matuzov, N.Nenovski, M.N.Marchenko, A.F.Cherdansev va boshqalar tomonidan o'rganilgan bo'lsa, A.P.Semitko, YE.A.Lukasheva, V.V.Lazareva, K.Dobbler, S.Glushkova, A.Golovastikova, L.Grudsina, YE.Lukasheva, R.Myullerson, A.Sungurov, E.Y.Batalov, V.P.Vasilyev, K.S.Gadjiev, I.N.Gomerov, Y.V.Irxin, Y.S.Pivovarov, V.A.Shevgorsov, E.L.Omelchenko, O.I.Karpuxina, Y.R.Vishnevskiyar inson huquqlari, huquqiy va ijtimoiy madaniyat shakllanishining falsafiy, axloqiy, antropologik tamoyillariga oid ayrim jihatlarini tadqiq etganlar.

NATIJALAR VA MUHOKAMA

Barkamol avlod tarbiyasi erkin va demokratik jamiyat taraqqiyoti uchun naqadar dolzarblik kasb etishini mamlakatimiz Prezidenti Sh.Mirziyoyev shunday ifodalaydi: "Bizni hamisha o'ylantirib keladigan yana bir muhim masala – bu yoshlarimizning odob-axloqi, yurish-turishi, bir so'z bilan aytganda, dunyoqarashi bilan bog'liq. Bugun zamon shiddat bilan o'zgaryapti. Bu o'zgarishlarni hammadan ham ko'proq his etadigan kim – yoshlar. Mayli, yoshlar o'z davrining talabları bilan uyg'un bo'lsin. Lekin ayni paytda o'zligini ham unutmasin. Biz kimmiz, qanday ulug' zotlarning avlodimiz, degan da'vat ularning qalbida doimo aks-sado berib, o'zligiga sodiq qolishga undab tursin. Bunga nimaning hisobidan erishamiz? Tarbiya, tarbiya va faqat tarbiya hisobidan".

Kishi tug'ilgan kunidan boshlab ijtimoiy mavjudot bo'lib qoladi. Uning xarakteri, xulq-atvori, shaxsi barcha ijtimoiy omillar yig'indisi, ya'ni tevarak-atrofdagi odamlarning unga munosabati, namuna ko'rsatishlari, mafkuralari, o'z faoliyatida hosil qilgan tajribasi ta'sirida shakllanadi. Albatta, ijtimoiy omillar inson shaxsining har tomonlama shakllanishiga samarali ta'sir ko'rsatadi. Pedagog bolanining muayyan rivojlanish davridagi xususiyatlari, xarakteri va fe'l-atvorini belgilovchi omillarning hammasining birgalikda ta'sir ko'rsatishini bilishi lozim.

O'sib kelayotgan avlodning tarbiyasi va ijtimoiy jarayonlarga moslashuvida bilim, unga munosabat masalasi doimiy muammo hisoblanadi. Bu muammo zamonaviy sharoitda yanada keskin ko'rinish kasb etmoqda. So'nggi yillar davomida pedagogika va boshqa fanlarda ijtimoiylashuv va tarbiya tushunchalarining o'zaro munosabati keng muhokama qilib kelinmoqda. Davlat mafkurasining o'zgarishi sababli bu muammoga alohida e'tibor qaratish lozim. Shu bilan birga birinchi guruh olimlari tarbiyani ijtimoiylashuv bilan almashtirishga harakat qilishmoqda. Ikkinci guruh olimlari tarbiyani bola ijtimoiylashuvining bir qismi sifatida o'rganishadi. Uchinchi guruh olimlari esa ijtimoiylashuv deganda, fuqaroviylar va axloqiy tarbiyani tushunishadi. To'rtinchi guruh olimlari shaxs ijtimoiylashuvni tarbiyaning asosiy maqsadi deb hisoblashadi. Biroq tarbiya bola ijtimoiylashuvining asosiy omillaridan biri ekanligini hamma tan oladi. Tarbiyaning asosida ijtimoiy harakat bo'lishi, uni ijtimoiylashuvdan farqlaydi.

Ijtimoiylashuv tushunchasini fanga kiritgan Maks Veberg uning muammolarini yyechishga qaratilgan harakat, inson xulq-atvorining taxminiy variantlarini subyektiv anglash sifatida ta'riflagan.

Umuman olganda, ijtimoiylashuv uzluksiz jarayondir, ya'ni inson doimo jamiyat bilan munosabatda bo'ladi. Tarbiya esa diskret (uzlukli) jarayondir. Chunki u muayyan tashkilotlarda amalga oshirilib, zamon va makonda cheklangan bo'ladi. Tarbiya pedagogikaning asosiy kategoriyalardan biridir. Shunga qaramay, tarbiyaning umume'tirof etilgan ta'rifi mavjud emas. Bunga uning ko'p ma'noliligini sabab qilib ko'rsatsak bo'ladi. Tarbiyani ijtimoiy hodisa, faoliyat, jarayon, qadriyat, tizim, ta'sir, o'zaro munosabat sifatida ko'rib chiqsak bo'ladi. Bu tushunchalarining hech qaysisi tarbiya mazmunini alohida olgan holatda to'liq ochib bera olmaydi.

Aslida tarbiya o'zi nima? Ilmiy jihatdan qanday ta'riflanadi? Mazkur savolga quyidagicha javob berish mumkin:

"Tarbiya" so'zi esa arabcha so'zdan olingan bo'lib, "parvarish qilmoq", "ta'lim bermoq", "o'rganish", "odob o'rgatish", "mehribonlik ko'rsatish", "himoya qilish" singari ma'nolarni anglatadi. Jamiyatimizda tarbiya har doim ham muhim masala bo'lib kelgan hamda shaxsning jismoniy, ruhiy, axloqiy, ma'naviy sifatlarni shakllantirishga qaratilgan.

Pedagogika – tarbiya haqidagi fandir. Bu ta'rif pedagogikaga ko'p asrlar oldin berilgan bo'lib, ma'lum ma'noda an'anaviy ta'rif deyish mumkin. Afsuski, mazkur ta'rif bugungi kun talabiga

to'liq javob bera olmaydi. Sababi, qator hollarda chalkashlikka olib keladi, fanning ta'sir doirasini toraytiradi. Gap shundaki, pedagogika fanida «tarbiya» atamasining o'zi turlicha izohlanadi:

- 1) keng ijtimoiy – insonga uni o'rab turgan ijtimoiy muhit ta'siri;
- 2) keng pedagogik – o'quv tarbiya jarayonini butunlay qamrab oladigan maqsadli faoliyat;
- 3) tor pedagogik – tarbiya deganda maxsus tarbiyaviy ishlar tushuniladi;
- 4) birmuncha torroq – tarbiyaviy kuch yo'naltirilgan maydoncha, masalan, vatanparvarlikni tarbiyalash (axloqiy tarbiya), badiiy tasavvurlarni shakllantirish (nafosat tarbiyasi) tushuniladi.

A.V.Mudrik quyidagi ta'rifni ilgari suradi: Tarbiya – insonning jamiyatga ko'nikishiga ko'maklashuvchi va bu ko'nikish sodir etiladigan guruh va tashkilotlarning xususiyatlariga mos keluvchi sharoitlar yaratuvchi insonning ongli rivojlanishi. Bu ta'rifni ham to'liq va butunlay to'g'ri deb bo'lmaydi. Unda muallifning nuqtai nazari o'z aksini topgan.

Tarbiya xususida taniqli o'zbek adibi Abdulla Avloniyning "Al-hosil, tarbiya bizlar uchun yo hayot, yo mamot, yo najot – yo falokat, yo saodat – yo razolat masalasidur" – deb aytgan fikrlari barcha millat vakillarining tarbiyasiga mos keluvchi haqiqatdir. Ushbu fikrlardan anglaniladiki, shaxs tarbiyasi xususiy ish emas, ba'ki ijtimoiy, milliy va davlat ishidir.

Tarbiya ijtimoiy institut sifatida ijtimoiy hayotda muayyan vazifalarga ega:

➢ Jamiyat a'zolarida bir maqsad sari qaratilgan dunyoqarashni shakllantirish va ular tomonidan tarbiya jarayonida amalga oshirilishi mumkin bo'lgan bir qator ehtiyojlarning qondirilishi uchun sharoitlar yaratish.

➢ Jamiyatda faoliyat yuritish va uni rivojlantirishga qodir bo'lgan kadrlarni tayyorlash.

➢ Ijtimoiy hayot barqarorligi madaniyatini avlodlarga meros qoldirish orqali ta'minlash.

➢ O'zgaruvchan ijtimoiy holatlarga jamiyat a'zolarini moslashishini ta'minlash.

➢ Jamiyat a'zolarining intilishlari, maqsadlarining birlashishini va ijtimoiy, kasbiy, etnokonfessial guruuhlar manfaatlarining uyg'unlashuvini ta'minlash.

Ijtimoiy pedagogning bu yo'nalishlarga bog'liq asosiy faoliyati zamonaviy tarbiya tamoyillari asosida quriladi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev Oliy Majlis palatalarining qo'shma majlisidagi nutqida takidlaganidek, «Yoshlarimiz haqli ravishda Vatanimizning kelajagi uchun javobgarlikni zimmasiga olishga qodir bo'lgan, bugungi va ertangi kunimizning hal etuvchi kuchiga aylanib borayotgani barchamizga g'urur va iftixor bag'ishlaydi. Bu sohada olib borayotgan keng miqyosli ishlarimizni, xususan, ta'limgartarbiya bo'yicha qabul qilingan umummilliyl dasturlarimizni mantiqiy yakuniga yetkazishimiz zarur».

Faqat tarbiya orqali insondagi rivojlanish imkoniyatlarini ro'yobga chiqarish mumkin. Tarbiya jarayonida aniq maqsad va reja asosida shaxsga ta'sir etiladi. Buning natijasi o'laroq, muhitdagi voqealarning to'g'ri ijobji ta'sirini amalga oshirish imkonini yaratiladi. Bolada muhit berolmagan narsalar tarbiya orqali hosil qilinadi, hatto tarbiya tufayli shaxsda tug'ma kamchiliklarni ham o'zgartirib, shaxsni kamolga yetkazish darajasiga olib chiqish mumkin. Bundan tashqari, muhitning salbiy ta'siri tufayli tarbiyasi izdan chiqqanlarni ham qayta tarbiyalaydi. Rivojlanish shaxs faoliyatidan tashqarida bo'lmaydi. Shu sababli ham odam faoliyati uning rivojlanishi uchun asos bo'lib xizmat qiladi. Pedagogik jihatdan to'g'ri uyushtirilgan har qanday faoliyat xoh o'yin, mehnat, o'qish, sport, ijtimoiy harakat, o'zaro munosabat va boshqalar bo'lsin, shaxsning rivojlanishiga ta'sir ko'rsatadi. Shaxs ulg'aya borgan sari uning faoliyati ham mazmunan, ham shaklan o'zgarib boradi, turli yosh davrlarida esa faoliyat turlari ham muhit holatiga qarab o'zgarib boradi. Shuning uchun bola hayotida o'yin, o'quvchi hayotida o'qish, kattalar hayotida mehnat faoliyatları katta ahamiyatga egadir.

Ijtimoiy tarbiya – butun jamiyat, xalq, millat, tabaqaga ko'rsatilgan maqsadga muvofiq tarbiyaviy ta'sir. Ijtimoiy tarbiya yordamida fuqarolarning xulq-atvori, xatti-harakati yagona maqsad tomon yo'naltiriladi. Xuddi shuning uchun ham ijtimoiy tarbiya – tarbiyaviy ta'sirning yagona dastur asosida amalga oshiriladigan ongli qismidir. Ijtimoiy tarbiya tizimining samaradorligini oshirish ushbu jarayon tashkilotchilari va targ'ibotchilari, eng avvalo, uning maqsadi va vazifalari, ustuvor yo'nalishlari va sohalari omillari va vositalari, uslublari va usullari haqida tiniq tasavvurga ega bo'lishlga bog'liq. Chunonchi, mamlakatimizda yangi jamiyat qurilayotgan hozirgi sharoitda ijtimoiy tarbiyaning asosiy maqsadi insonparvar demokratik jamiyat, huquqiy davlat, yagona umummilliyl g'oya atrofida fuqarolarni birlashtirishdan iborat. Ijtimoiy tarbiyaning asosiy vazifasi jismoniy

ILMIY AXBOROT

baquvvat, madaniy-ma'naviy yetuk, ruhan tetik, mustaqil fikrlash, ishlash va yashash qobiliyatiga ega bo'lgan, zamonasining ilmiy-teknika taraqqiyoti talablariga mos kasbkor mahoratini o'zida mujassamlashtirgan barkamol insonni shakllantirishdan iboratdir. Barkamol inson shaxsini qaror toptirish borasidagi tarbiyaviy ishlar 5 asosiy: aqliy, axloqiy, mehnat, estetik va jismoniy yo'nalishlarda amalga oshiriladi.

O'quvchilarning rivojlanishida o'quv jarayonlarining ahamiyati va ta'siri beqiyos kattadir. Bilimlarni o'zlashtirish ularning tafakkurini o'stiradi, ijodiy qobiliyatlarini shakllantirishning asosiy vositasi bo'lib qoladi. Bu jarayonda ularda ijtimoiy xulq normalari shakllanib boradi. Shaxs qaysi yoshda bo'lishidan qat'iy nazar, uning rivojlanishida mehnat faoliyatining ahamiyati nihoyatda kattadir.

XULOSA

Ijtimoiy tarbiya ta'sirchanligini oshirishda turli uslublar (tushuntirish, ishontirish, majburqilish) va usullar (alohida, jamoaviy, ommaviy)dan oqilona foydalanish zarur.

Ijtimoiy tarbiya tizimida eng asosiy o'rinni umumiya'lim maktablari egallaydi, chunki, endigina oila va uning yalovbardorlari bo'lmish ota-onas, bobo, momolarning individual tarbiyasi ta'sirida bo'lgan yosh nihol, umumiy ta'lif maktablarining rejalashtirilgan tarbiyaviy, ya'ni mafkuraviy ta'sir doirasiga kiradi. O'sha kundan e'tiboran, murg'ak qalb faoliyatini jamiyat, millat manfaati tomon burish uchun dastlabki qadam tashlanadi.

ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Ўзбекистон Республикаси Президенти Шавкат Мирзиёевнинг "Ижтимоий барқарорликни таъминлаш, муқаддас динимизнинг соғлигини асраш – давр талаби" мавзуусидаги анжуманда сўзлаган нутқи. 15.06.2017. <https://president.uz/uz/lists/view/649>
2. Мирзиёев Ш.М. Эркин ва фаровон, демократик Ўзбекистон давлатини биргаликда барпо этамиз. – Т.: «Ўзбекистон», 2016. – Б. 13.
3. Djanpeisova G.E., Davlatova R.H., Haydarova Sh.N. Bolalarning ijtimoiy moslashuvi. Darslik. – Toshkent: Bookmany print, 2023. – B. 6-7. (206 b.)
4. Falsafiy qomusiy lug'at. – Toshkent: „O'zbekiston faylasuflari milliy jamiyati nashriyoti“, 2004.
5. Авлоний Абдулла. Туркий гулистон ёхуд ахлоқ. – Тошкент, Ўқитувчи, 1992.
6. Боймуродов Н. Амалий психология. – Т.: «Янги аср авлоди», 2008. – Б. 266.
7. Мудрик А.В. Социальная педагогика. – М.: Просвещение, 2005. – С. 17.



УО'К: 378.1

**INFORMATSION VA ANALITIK KOMPETENTLIKNI INTEGRATSİYALASH ASOSIDA
RIVOJLANTIRISHNING AHAMIYATI**

**ВАЖНОСТЬ РАЗВИТИЯ ИНФОРМАЦИОННО-АНАЛИТИЧЕСКОЙ
КОМПЕТЕНТНОСТИ НА ОСНОВЕ ИНТЕГРАЦИИ**

**THE IMPORTANCE OF DEVELOPING INFORMATION AND ANALYTICAL
COMPETENCE THROUGH INTEGRATION**

Adashev Ilhomjon 
Farg'ona davlat universiteti

Annotatsiya

Mazkur maqolada hozirgi jamiyatda telekommunikatsiyaning rivojlanishi natijasida axborotlarni tez va ishonchli tarzda qabul qilish murakkablashib borishi natijasida zarur axborotni yetkazishda uning ishonchliligi, yetkazuvchidan o'ziga xos komponentlikni talab etayotganligi masalalari tahlili etilgan. Shuningdek, pedagoglarda informatsion va analitik kompetentlikni integratsiyalash, ularni o'zaro aloqadorlikda rivojlanirish vazifalari dolzarblik kasb etib bormoyotganligi tushuntirilgan. Ayni paytda esa axborotlarni chuqur analistik tahlil qila oladigan, axborotlarni saralay oladigan va ishonchli manbalarni ajrata oladigan kadrlarga bo'lgan ehtiyojni yuzaga kelayotganligi masalalari ham ko'rib chiqilgan.

Аннотация

В данной статье рассматриваются сложности, возникающие в результате быстрого и надежного получения информации в связи с развитием телекоммуникаций в современном обществе. Анализируются вопросы, касающиеся надежности передачи информации и уникальных компетенций, требуемых от поставщика информации. Также объясняется актуальность интеграции информационной и аналитической компетентности среди педагогов и необходимость развивать эти компетенции в взаимосвязанном контексте. В статье также рассматривается растущая потребность в специалистах, способных проводить глубокий аналитический анализ информации, фильтровать данные и различать надежные источники.

Abstract

This article discusses the complexities arising from the rapid and reliable acquisition of information due to the development of telecommunications in modern society. It analyzes the issues related to the reliability of information delivery and the unique competencies required from the information provider. Additionally, it explains the relevance of integrating information and analytical competence among educators and the need to develop these competencies in an interconnected manner. The article also addresses the growing demand for professionals who can conduct in-depth analytical assessments of information, filter data, and distinguish reliable sources.

Kalit so'zlar: Shaxs, jamiyat, media, raqamli texnologiyalar, axborot kommunikatsion tizimlar, televideniye, radio, kinematograf, ommaviy nashrlar, kompyuter axborot tizimlari.

Ключевые слова: Личность, общество, медиа, цифровые технологии, информационно-коммуникационные системы, телевидение, радио, кинематография, массовые публикации, компьютерные информационные системы.

Key words: Individual, society, media, digital technologies, information communication systems, television, radio, cinematography, mass publications, computer information systems.

KIRISH

Jahonda media axborotlar shu qadar ommalashib kettiki, xatto ulardan ta'limgarayonida ham uzlusiz foydalanish yuzaga kelmoqda. Ayniqsa, yangi asrnинг dastlabki yillaridan boshlab, informatsion texnologilar va media vositalarning jadal rivojlanishi natijasida ularni ta'limgarayoniga ham kirib kelishiga sabab bo'ldi. Ta'limgarayoniga vositalardan foydalanish ommalasha boshladi. Xalqaro ta'limgarayoniga maydonida an'anaviy ta'limgarayoniga farqli ravishda media ta'limgarayoniga (televideniye, radio, kinematograf, ommaviy nashrlar, kompyuter axborot tizimlari) tushunchasi keng ishlatalmoqda [8]. Media ta'limgarayoniga elektron darsliklardan to masofali ta'limgarayoniga, bulutli texnologiyalar, ommaviy ochiq onlayn kurslarigacha bo'lgan taraqqiyot ta'limgarayoniga shakllarini takomillashtirishga zamin yaratadi. Bu esa axborot olish imkoniyatini kengaytirish bilan birga informatsion-analitik kompetentlikka ega bo'lish mas'uliyatini ham shakllantirmoqda.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR

Media ta'lif muhitida bo'lajak pedagoglarni media savodxonligini rivojlantirish, matbuot, televideeniye va radio eshittirish, reklama, kino, internet barcha ilovalari bilan analitik fikrlash tarzini o'stirish, informatsion kompetentlikni shakllantirish sohasidagi tadqiqotlar Chikaga university (AQSH), American history assotiation (AQSH); Institute of the history studies in Oxford (Angliya), Institute named after Frica Baue (Germaniya); Nagoya university (Yaponiya), The center fo social sciences in Seoul national university, Seoul Cyber University, Institut of historical research AJOU university (Janubiy Koreya); Rossiya Fanlar akademiyasining tarix instituti (Rossiya) kabi yetakchi ilmiy markazlari va oliy ta'lif muassasalarida olib borilmoqda.

Bo'lajak pedagoglarning kasbiy kompetentligini rivojlantirishga oid jahonda olib borilgan tadqiqotlar natijasida qator ilmiy natijalar olingan, jumladan: Xalqaro hamkorlikni amalga oshirishning tashkiliy va strategik mexanizmlari kasbiy ko'nikmalarini rivojlantirish texnologiyalarini ishlab chiqish asosida takomillashtirilgan (Association for Educational Communications and Technology – AECT); pedagogika oliy ta'lif muassasasi bo'lajak pedagoglarni tyutorlik faoliyatiga tayyorlash tizimining samarali faoliyat ko'rsatish mexanizmlari kasbiy metodik tayyorgarlikni rivojlantirish asosida takomillashtirilgan (Belfield pedagogical university); o'qituvchi kasbiy mahoratini rivojlantirishning tashkiliy-tuzilmali modeli yaratilgan (Centre of increasing to pedagogicalqualification on base Manchesters university); bo'lajak o'qituvchilarining tadqiqotchilik ko'nikma va malakalarini rivojlantirish texnologiyalari ishlab chiqilgan (University of Columbiya: AQSH); University of Sorbonne (Fransiya), (University of Freiburg: Germaniya); talabalarda ilmiy tadqiqot ishlarini rivojlantirishning loyihibiy-konstruktiv texnologiyalari yaratilgan (University of Chunang: Janubiy Koreya); bo'lajak pedagogning ma'naviyatini shakllantirishning neyrolingvistik dasturlashtirish texnologiyasi takomillashtirilgan (Miyagi pedagogical university: Yaponiya); bo'lajak pedagoglarda o'z kasbiga sadoqatlilik pozitsiyasini rivojlantirishning kollaborativ texnologiyalari ishlab chiqilgan (Rossiya); pedagoglarda media savodxonlikni rivojlantirish instituti (Media Literacy Institute) mexanizmlari takomillashtirilgan.

NATIJALAR VA MUHOKAMA

Hozirgi kunda telekommunikatsiyaning jadal rivojlanishi natijasida axborotlarni tez va ishonchli tarzda qabul qilish murakkablashib bormoqda. Ayniqsa biror zarur axborotni yetkazishda uning ishonchliligi, yetkazuvchidan o'ziga xos kompetentlikni talab etadi. Shuning uchun pedagoglarda informatsion va analitik kompetentlikni integratsiyalash, ularni o'zaro aloqadorlikda rivojlantirish vazifalari dolzarblik kasb etib bormoqda. Bu esa axborotlarni chuqr analitik tahlil qila oladigan, axborotlarni saralay oladigan va ishonchli manbalarni ajrata oladigan kadrlarga bo'lgan ehtiyojni yuzaga keltirmoqda. Bu esa oliy ta'lif muassasalarini bitiruvchi yoshlarini tarbiyalash hajmini kengaytirish bilan birga sifatli va samarador ta'lifni tashkil etish orqali zamonaviy bilim va ko'nikmalarga, bugungi zamon talab qilayotgan kompetentlikka ega bo'lgan kadrlarni tayyorlash tizimini ham qayta ko'rib chiqishni, isloh qilishni talab etmoqda. Oliy ta'lif muassasalarida yetuk kadrlar tayyorlash bilan birga ularni informatsion va analitik tafakkur ko'nikmalarini ham rivojlantirish talabi ham yuzaga chiqmoqda. Bu esa, pedagoglar tayyorlash tizimini yangicha yondashuvlar bilan boyitishni, unga rivojlangan davlatlar tajribasini qo'llashni hamda ularda informatsion-anatilitik kompetentlikni rivojlantirish amaliy ahamiyat kasb etmoqda.

Tadqiqotda bo'lajak pedagogik oliy ta'lif muassasasi bitiruvchilarida informatsion va analitik kompetentlikni rivojlantirishning pedagogik zarurati, bugungi oliy ta'lif muassasalarida informatsion-analitik tafakkurni rivojlantirishning mavjud holati va kamchiliklarni bartaraf etish imkoniyatlari va yechim yo'llari tahlil qilingan.

Mazkur masala yuzasidan esa avvalo "kompetensiya", "kompetentlik", "analitik kompetentlik", "informatsion kompetentlik", "integratsiya", "integratsion ta'lif", "informatsion-analitik kompetentlik" tushunchalarining mazmun-mohiyati, konseptual asoslarini ko'rib chiqish maqsadga muvofiq bo'ladi.

"Kompetensiya" atamasi fanda ilk bor XX asrning 50-60-yillarida qo'llangan. Inglizcha "competence" tushunchasi lug'aviy jihatdan bevosita chuqr bilimga asoslangan qobiliyat, layoqatlichkeit darajasini anglatadi [3]. Mazmunan esa "faoliyatda nazariy bilimlardan samarali foydalanish, yuqori darajadagi kasbiy malaka, mahorat va iqtidorni namoyon eta olish"ni bildiradi. Ko'plab olimlar tomonidan "kompetensiya" va "kompetentlilik" tushunchalariga berilgan ta'riflarda

kompetensiya muayyan faoliyatda talab qilinadigan xulq-atvor, o'zini tutish, kompetentlilik esa ushbu talabga moslik darajasi, ya'ni kompetensiyani namoyish qilishning pirovard natijasi deb talqin qilinadi.

"Kompetentlilik" tushunchasi ta'lif sohasiga psixologlarning ilmiy izlanishlari natijasida kirib kelgan. Psixologik nuqtai-nazardan kompetentlilik "noan'anaviy vaziyatlar, kutilmagan hollarda mutaxassisning o'zini qanday tutishi, muloqotga kirishishi, raqiblar bilan o'zaro munosabatlarda yangi yo'l tutishi, noaniq vazifalarni bajarishda, ziddiyatlarga to'la ma'lumotlardan foydalanishda izchil rivojlanib boruvchi va murakkab jarayonlarda harakatlanish rejasiga egalik" [7; 6-9 b.] ni anglatadi. Shuningdek, kompetensiyalar bilimlarni doimo boyitib borishni, yangi axborotlarni o'rganishni, muhim ijtimoiy talablarni anglay olishni, yangi ma'lumotlarni izlab topish, ularni qayta ishslash va o'z faoliyatida qo'llay bilishni taqozo etadi.

Ta'limga kompetent yondashuv bo'lajak kadrlarda hosil bo'lgan kompetensiyalardan shaxsiy, kasbiy va ijtimoiy hayotda uchraydigan turli vaziyatlarda samarali foydalanishga o'rgatishni ko'zda tutadi. Bunda kutilmagan noaniq, yangi, muammoli vaziyatlarga duch kelinganda tegishli bilim, ko'nikma, malakalardan foydalana olishga alohida e'tibor qaratiladi. Shu bois har bir fanni o'qitish jarayonida uning mazmuni hamda xususiyatlaridan kelib chiqqan holda unga doir kompetensiyalar shakllantiriladi.

Kompetentlik "noan'anaviy vaziyatlar, kutilmagan hollarda mutaxassisning o'zini qanday tutishi, muloqotga kirishishi, raqiblar bilan o'zaro munosabatlarda yangi yo'l tutishi, noaniq vazifalarni bajarishda, ziddiyatlarga to'la ma'lumotlardan foydalanishda, izchil rivojlanib boruvchi va murakkab jaraenlarda harakatlanish rejasiga egalik" ni anglatadi. Kasbiy kompetentlik mutaxassis tomonidan alohida bilim, malakalarning egallanishini emas, balki har bir mustaqil yo'nalish bo'yicha integrativ bilimlar va harakatlarning o'zlashtirilishini nazarda tutadi. Shuningdek, kompetensiya mutaxassislik bilimlarini doimo boyitib borishni, yangi axborotlarni o'rganishni, muhim ijtimoiy talablarni anglay olishni, yangi ma'lumotlarni izlab topish, ularni qayta ishslash va o'z faoliyatida qo'llay bilishni taqozo etadi [4].

"Informatsion-analitik kompetentlik" integratsiyalashgan kompetensiya ko'rinishlaridan biri hisoblanadi. Bugungi kunda bir kompetensiyani shakllantirishdan ko'ra, bir nechta kompetensiyani uyg'unlikda shakllantirish va rivojlantirish muhim vazifalardan biri bo'lib qolmoqda. "Informatsion-analitik kompetentlik" informatsion madaniyat va analitik tafakkur asosida shakllantiriluvchi bilim va ko'nikmalarning yuksak ko'rinishi hisoblanadi. Demak, iinformatsion-analitik kompetensiya – informatsion madaniyat va analitik fikrlash tarzini integratsiyalash asosida yuzaga keladigan kompetentlik hisobalandi.

O'qitishning axborot-tahliliy komponentlari mustaqil, alohida kompetensiyalar sifatida qaraladi. Bunday qarashning dolzarb misoli N.V.Frolovaning fikricha kasbiy ta'lif tizimida boshqaruvchilarini tayyorlash jarayonida quydagilarni ta'kidlaydi: 1) axborotni boshqarish kompetensiyasi, jumladan: - axborot resurslarining samarali tizimini yaratish; – Muayyan axborot resursiga talabni aniqlash. 2) Analitik boshqaruv kompetensiyasi, bu quydagilarni nazarda tutadi: - axborot resurslari tizimi samaradorligini oqilona baholash; – axborot resurslari tizimining turli jihatlarini xolisona baholash; – axborot oqimlarini operativ tahliliy baholashni amalga oshirish; - turli manbalardan kelayotgan axborot oqimlarini operativ-tahliliy taqqoslash; - olingan ma'lumotlar asosida murakkab tahliliy xulosalarni shakllantirish; - olingan ma'lumotlarni sharhlash, tizimlashtirish va tahlil qilish [5].

Shuning uchun ham, bo'lajak o'qituvchilarining informatsion-analitik kompetentligini rivojlantirishda analitik fikrlash tarzini shakllantirish ustuvorlik kasb etadi. Zotan, «analitik uslubda fikrlash har qanday masala yuzasidan chuqur, atroficha mantiqli fikr yuritish bilan birga chiqarilgan xulosaning isbotlangan bo'lishi jixatidan ajralib turadi. Demak, talabalarni analitik fikrlash tarzini shakllantirishda o'ziga xos yondashuv, qarashni aniq, mantiqli, ifodali bayon etish hamda asoslashga o'rgatish muhim ahamiyatga ega. Har bir odamning tafakkur darajasi ham bilimlar turfaligi natijasida analitik tafakkur o'ziga xos qarashlarni yuzaga chiqishiga imkon beradi» [2; 89-b.]. Shunday ekan bo'lajak o'qituvchilarida informatsiyalar bilan ishslashda ularni chuqur analitik tahlil qilish kompetentligini shakllantirish ularda kasbiy malaka darajasini oshishiga ta'sir ko'rsatadi.

"Falsafa qomusiy lug'ati"da "analitika" atamasi «tahlil qilish, muhokama, isbotlash san'ati sifatida izohlanadi» [1]. Analitika atamasi ilk bor «Aristotel tomonidan mantiqiy tahlil texnikasiga

ILMIY AXBOROT

berilgan nom sifatida qo'llangan. Uning "Analitika" nomli asarida fikrlashning bu yo'siniga taalluqli ikki jihat: murakkab butunlikka ega bo'lgan obyektni dastlab oddiy qismlarga ajratish va ularni tekshirish asnosida tafakkur yuritishning murakkablashib borishiga e'tibor qaratiladi». Demak, analitik fikrlash tarzi murakkab va chuqur tahlillarga asoslangan fikrlash usuli hisobalandi.

Tadqiqotchi Sh. Hasanov fikricha, «analitik fikrlash tarzi – tahliliy fikr yuritish san'ati, biror muammo, masala, axborot, voqeа-hodisani o'rganish jarayonida u haqida atroflicha, aniq, teran, chuqur, mazmundor, mustahkam to'xtamga kelish qobiliyati. Analitik tafakkur egasi tahlil qilinayotgan obyektni har tomonlama sinchiklab o'rganadi: murakkab axborotlarni qismlarga ajratadi, har bir so'z, jumla, detal, narsa ustida jiddiy fikr yuritadi, qismlarni o'zaro mantiqiy bog'laydi, maqbul xulosaga keladi va kerakli qarorlar qabul qiladi. Analitik qobiliyat egasi har qanday hodisa ustida fikr yuritganda narsa-hodisaning tashqi ma'nosini uqish bilangina cheklanmay, uning ichki – botiniy ma'no qatlamlarini ham aniqlashga urinadi. Natijada tahlil etilayotgan obyekt yuzasidan atroflicha tushuncha yuzaga keladi. Analitik tafakkur muammo yoki masalaning oson va tez, to'g'ri va aniq hal etilishini ta'minlashga xizmat qiladi» [6; 11-b.]. Mazkur tarif asosida tadqiqotchi analitik fikrlash tarzining namoyon bo'lishini quyidagicha asoslaydi: «analitik tafakkur fikrlashning mantiq bilan qat'iy bog'langan, predmetni aniq, to'g'ri, obyektiv, har tomonlama tahlil etishga qaratilgan aqliy faoliyat turidir; analitik tafakkur – ijtimoiy hayotning hamma sohalari bo'yicha tahlil qilish, munosabat bildirish, o'tmishni anglash, bugunni idrok etish, kelajakni bashorat qilish, taraqqiyotning istiqbolli yo'llarini belgilash imkonini beradigan sermahsul fikrlash yo'sini; analitik tafakkur insonni innovatsion g'oyalarni ilgari surish, yangi texnologiyalarni yaratish, amaliyatga tatbiq etishga undaydigan yaratuvchan fikrlash tarzidir; ta'lim tizimida talabalarda analitik tafakkur qobiliyatini rivojlantirish – bu mustaqil fikrlaydigan, har qanday muammoga tezlik bilan oqilona yechim topa biladigan, fikriy qaramlikdan yiroq barkamol avlod tarbiyalash imkonini beradi. Analitik kompetentlik kishiga odam va olamni idrok etish quvvatini beradigan, uning fikrlash mexanizmini ratsional harakatga keltiradigan aql generatoridir» [6; 11-b.]. Demak, tafakkur ko'rinishlari orasida shaxs eruditsiyasi va intellektini oshirish borasida samaradorligi bilan alohida ajralib turuvchi turi analitik tafakkur hisoblanadi. Chunki analitik tafakkur o'rganilayotgan obyektga turli tarafdan yondashish, uning ichki va tashqi aloqalarini kompleks holda tekshirish va to'xtamga kelishni taqozo etadi. Analitik tafakkur yuritishda fikrlash sur'atining tezligi, masalaga turli tomonda yondasha bilish, qamrov dorlik, muammoga eng muvofiq va samarali yechim topish singari jihatlar ustuvorlik qiladi.

XULOSA

Xulosa qilib aytganda, Bo'lajak pedagoglarda analitik kompetentlikni rivojlantirishda ongli tanqidiy tafakkurning ahamiyati katta. Analitik fikrlash tanqidiy tafakkur taraqqiyotining eng oliv namunasi bo'lishi kerak. Shuning uchun analitik tafakkurning rivojlanishidagi jarayonlarga oid turli qarashlar, yondoshuvlar, konsepsiylar orasidagi ziddiyatlar mavjudligiga e'tibor berilsa, talabada tanqidiy tafakkurni rivojlantirish u qiyin muammo emasligi namoyon bo'ladi.

ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Фозиев Э. Тафаккур психологияси. Тошкент.: Ўқитувчи.-1990. –Б. 25.
2. Миркосимова М.М. (2020) Талабаларда аналитик тафаккурни ривожлантириш технологияси. Scientific Bulletin of Namangan State University: Vol. 2 : Iss. 4 , Article 89. Available at: <https://uzjournals.edu.uz/namdu/vol2/iss4/89>
3. Нарзиева Н. Формирование исследовательских компетенций у учащихся на основе интегративного подхода // XV Международная научно-практическая конференция. World science: problems and innovations. Мцнс «Наука и просвещение». 30-ноября 2017. –Пенза, 2017. Часть 3. –С. 114.
4. Усмонова Х.Ш., Фаниева Ш.Н. Бўлажак педагогларда касбий компитентликни ривожлантириш усуллари. Academic research in educational sciences. Volume 2. Issue 7, 2021
5. Фролова Н.В. Повышение качества профессиональной подготовки будущих менеджеров, посредством компетентностно-ориентированных технологий обучения [Электронный ресурс] / Н. В. Фролова // Преподаватель высшей школы в XXI в.: материалы международной научно-практической интернет-конференции. – 2007–2008. Режим доступа: <http://rudocs.exdat.com/docs/index-373932.html>
6. Ҳасанов Ш. Адабий таълим жараёнида талабаларда аналитик тафаккурни ривожлантириш технологиясини такомиллаштириш. (Олий филологик таълим мисолида). Педагогика фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD) диссертация автореферати. Наманганд. АДУ. –Б. 11.
7. Юсуфбекова Н.Р. Тенденции и законы инновационных процессов в образовании. Новые исследования в педагогических науках. - М.: Педагогика, 1991.-№2. –С. 6-9.
8. Fedorov, Alexander. Media Education and Media Literacy. Taganrog, 2004, 340 p.



MUROJAATNING SOTSIOLINGVISTIK TABIATI
СОЦИОЛИНГВИСТИЧЕСКАЯ ПРИРОДА ОБРАЩЕНИЯ
THE SOCIOLINGUISTIC NATURE OF ADDRESSING

Giyosova Vasilaxon Avazxo qizi 
Rus filologiyasi kafedrasini katta o'qituvchisi

Annotatsiya

Maqolada murojaat shakllarining nutqiy muloqot jarayonidagi o'rni, uning ijtimoiy tabiatini va mazmuni, lisoniy va nolisoniy vositalalar bilan ifodalanishi xususida fikr yuritiladi.

Аннотация

В статье рассматривается роль форм обращения в процессе речевого общения, их социальная природа и содержание, а также способы их выражения с помощью лексических и нелексических средств.

Abstract

This article discusses the role of forms of address in the process of verbal communication, their social nature and content, as well as how they are expressed through linguistic and non-linguistic means.

Kalit so'zlar: murojaat shakllari, sotsial muhit, so'zlovchi, nutqiy muloqot, ong, tafakkur, embrional til, verbal til, tovush, til funksiyalari.

Ключевые слова: формы обращения, социальная среда, говорящий, речевое общение, сознание, мышление, эмбриональный язык, вербальный язык, звук, функции языка.

Key words: forms of address, social environment, speaker, verbal communication, consciousness, thought, embryonic language, verbal language, sound, language functions.

KIRISH

Ma'lumki, insonlar tildan foydalanish jarayonida undagi turli birliklar orqali o'zaro aloqaga kirishadilar. Murojaat shakli nutqiy muloqot jarayonida to'g'ridan-to'g'ri suhbatdoshga yo'naltirilganligi sababli muloqot jarayonining zaruriy elementi hisoblanadi. Shuning uchun ham murojaat shakllari bilan bog'liq ilmiy qarashlar lingvistika sohasida

Insonlar o'tasidagi o'zaro muloqot jarayonida murojaatga bo'lgan ehtiyoj zarururiy ehtiyoj sifatida yuzaga chiqadi.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR

Obyektiv sotsial muhit tufayli yuzaga kelgan ijtimoiy va psixologik holat shu muhitda yashab hayot kechiruvchi shu individda o'zgaga murojaat qilish ehtiyojining zaruriyatini har qachongidan keskinroq shart qilib qo'ygan. Bunda quyidagilar kuzatiladi: 1) sotsial muhit, 2) bundan tug'iladigan psixologik holat, 3) individning shu muhit va holatdagi hayoti, 4) undan kelib chiqadigan ehtiyoj, 4) bu ehtiyojning obyektivligi.

Shu omillar tufayli murojaat yuzaga chiqadi va reallashadi. Keltirilgan omillar va murojaat mazmunidan kelib chiqib, murojaatni quyidagicha belgilash mumki: sub'ektning o'zgaga bo'lgan munosabatidagi so'rov-da'vat mazmunining lisoniy hamda nolisoniy vositalalar orqali ifodalanishi va bunga mos holdagi javob kutilishi – munosabatga bildirilishi murojaatning mohiyatini tashkil etadi.

Murojaatning bunday belgilanishida, tashkil etuvchi sifatida quyidagi tushunchalar ishtiroki mayjud: sub'ekt, ob'ekt (o'zga); lisoniy, nolisoniy (vositalar); so'rov-da'vat, javob.

So'zlovchining ijtimoiy-falsafiy qarashlari, psixologik holati o'zgaga bo'lgan munosabatda o'z ifodasini topar ekan, bunda ayni shu situatsiya asnosidagi ong faoliyati hal qiluvchi rol o'ynaydi. Insonning fikr yuritishi nutq jarayonida ham to'xtamaydi, doimo ishlab turadi. "Inson ongi xaram emas, balki u ustaxonadir, inson esa undagi ishchidir". So'zlovchi, ya'ni murojaat sub'ekti ana shu

ILMIY AXBOROT

ustaxonada “etishtirilgan” o’z ongi doirasida fikr yuritadi va hukm chiqaradi. Bunda 1) murojaat qilish yoki qilmaslik hukmi, 2) qay tarzda murojaat qilish hukmi ong faoliyati orqali tasdiqlanadi va tasdiqlanib barqaror holga kelgan qat’iy hukm so’zlovchi – subyektning ichki nutqi orqali shakllanadi. Bu xususda fikr yuritar ekan, S.L.Rubinshteyn shunday yozadi: “Ichki nutq tuzilishining xususiyatlarini o’rgangan L.S.Vygodskiy bu nutq strukturasini predikativdir, deb xarakterlaydi”[1,457].

Shimoliy Amerkadagi hopi qabilasi hindulari miflarida hikoya qilinishicha, dastlab ikki xudo bo’lgan - Sotuknang va Toyovo. Bulardan birining fikri-yodi cheksizlikka tikelganini ko’rgan ikkinchisi uni o’zimizning sayyoraga e’tibor qaratishga, Ayol-o’rgimchak yoki Xom Yer onani yaratishga da’vat etadi. Bu ayol yaratilgandan so’ng, u bir chimdim tuproqni o’z tuprigi bilan qorib, loy hamirdan egizaklar - Pokongohoyya va Polongoxoyyalarni yasaydi, ulardan biri cho’qqilarni yaratadi, ikkichisi dunyonи tovush bilan to’ldiradi[2,14].

Kadimgi hindlarning miflarida esa eshitishning imkonи bo’lmagan tebranish sadosidan koinot yaralgan, eshitiladigan, bo’lganda so’z vujudga kelgan, unda bilimlar mujassamlashgan, bu bilimlar vaqt boshlangandan to bizning kunimizgacha so’z orqali o’tib keladi[3,523], deb qaraladi. Ko’rinadiki, “til bilimning belgilari sistemasi ko’rinishda yashash shaklidir”[4,10] degan yoki “his - tuyg’u ifodalash tovush vositalari bora - bora narsalar, ularning xususiyatlari ham munosabatlarini anglatuvchi vosita sifatida shakllanib boradilar, oldindan o’ylab qo’ylgan xabar - axborot berish funksiyasini boshlaydilar” degan fikrlarning ildizi qadimiy miflar bilan bog’lanadi. Bu miflardagi ratsional reallik shundan iboratki, birinchidan, cho’qqilar bo’lmasa tovush bo’lmaydi.

Tovush va tovushlar kompleksi bo’lmasa, ma’no va tushunchalarning yashash shakli sifatidagi so’z bo’lmaydi. So’z o’zining moddiy tanasiga tovush tufayli ega bo’ladi. Ma’no tovushga yuklanadi. Tovush shu nuqtai nazardan qaralsa, birlamchi hodisadir. Ma’no supersegment xodisa; ikkinchidan, so’z eshitilmaydigan tovush emas, eshitiladigan tovushlar kompleksidan shakllanadi; shuningdek, nafaqat so’z, balki koinotning o’zi ham tebranish, ya’ni harakat va sado tufayli vujudga kelgan.

Bu o’rinda yana bir jihat alohida e’tiborni tortadi: yaralish sifatidagi cho’qqilar, tovush, Xom Yer Ona va bular orqali mavjud borliqning, Yerdagi hayotning paydo bo’lish barobarida hamda uning mahsuli sifatida insoniyat va uning tili ham paydo bo’lgan. Mana shu jarayonda ham murojaat ishtiroki mavjud – ikki ob’ektdan biri ikkinchisiga murojaat-da’vat bilan Xom Yer Onani yaratishga da’vat etadi.

Ko’rinadiki til so’z, tovush tufayli borliq bilan birgalikda vujudga kelib, tadrijiy ravishda rivojlanib, barqarorlashib kelgan. Bunda tovushga nisbatan bo’lgan katta e’tibor inson tilining tovushli til ekanligiga mifologik tafakkurning ishoratidir.

Bu qarashlardan kelib chiqadiki, so’z - buyuk xilqat. Barcha dinlar so’zni,

nutqni hayot bilan bilan birga olingan ilohiy tuhfa, deb hisoblaydilar[5131]. “So’zlar, agar ular hayot yoki o’lim degan g’oyani bera olmasalar, behuda so’zlardir”[6,224]. Shuning uchun ham qadimgi hind falsafiy ta’limoti bo’yicha inson borliq oldida o’z fikr- mulohazalari va hatti - harakatlari bilangina emas, balki aytadigan so’zi bilan ham mas’uldir[7,523].

Ayni davrda mavjud bo’lib, kundalik iste’molda faol qo’llanadigan jonli tilning o’tmishdagи mohiyati, mazmuni va ruhiy dunyosini anglash, his qilish shunchalik murakkab ekan, umuman, tilning qanday paydo bo’lganligini aniqlash qanchalik murakkab muammo ekanligini tushunish unchalik qiyin emas. Tilning paydo bo’lishi ilmiy dunyoda falsafiy, psixologik, sotsiologik va filologik tushunchalar bilan aloqador holda yoritiladi. Bu esa turli qarashlar va oqimlarning paydo bo’lishiga olib kelgan.

Bu kabi qarashlar dunyo etnograflari tomonidan ham e’tirof etiladi. Mashhur etnograf E.B.Taylor bu masala bo’yicha quyidagi fikrni bildirgan: “Hayvonlar qichqiriqlariga taqlid qilib, o’zlarini quvontiruvchi ingliz bolalari, o’zlarining sevimli o’yinlarini arra yoki randadan chiqayotgan, miltiq yoki boshqa qurollar otishmalaridan chiqayotgan tovushlarga, boshqa turdagи turli asboblarga xos tovushlarga taqlid qiluvchi yangizellandiyaliklar tilning paydo bo’lishida muhim ahamiyatga ega bo’lgan taqlidga bir xil yo’l bilan keladilar”[8,68]

NATIJA VA MUHOKAMA

Inson tilida tovush va uning o’rnı haqida adabiyotning yirik nazariyotchisi akademik L.I.Timofeyevning “Slova v stixe” nomli kitobida ham g’oyat qiziqarli fikrlar beriladi. Uningcha

keyinchalik til, nutq nomlari bilan yuritiladigan tovush insoniyat madaniyatining beshigi deb atalmish tomon ko'z ilg'amas holda yaqinlashishni boshlaydi, unda hayot faktlaridan shu hayotni anglash faktlari unib chiqadi. Dastlab u yoki bu emotsiyal holatlarni qo'zg'atuvchi, bevosita o'ziga bog'lanib turadigan voqelik xodisalariga o'ta jo'n subektiv munosabat tarzida bo'lgan. Old til o'zining boshlanishi, paydo bo'lismida faqat sof emotsiyal bo'la olar edi. "Hayvonlar tili", uning tovushli yozuvlari borasida olib borilgan hozirgi zamon tadqiqotlari bunga guvohlik beradi. Bu old til, eng avvalo, situativdir, yani hayot, yashash muhiti vujudga keltirgan tovush bilan bevosita, organik aloqadadir...

Embrional "til" – bu, emotsiyal old til bo'lib, o'z asosiga ko'ra, polisemantik, okkazional, situativ tildir, tashvishli, tahdidli, xavfli, xalokatga olib borishi mumkin bo'lgan aniq lahma, aniq vaziyatlardagina vujudga keladi, namoyon bo'ladi. Embrional, verballik va so'zlilikgacha bo'lgan dastlabki til ekstremal vaziyatlarda dunyoga keladi va shuning uchun ham u to'laligicha emotsiyaldir... Verbal til vujudga kelishi, shakllanishi bilan kommunikativlikdan, hayvonlar "tili" da imkon bo'limgan ashyoviylik tomon o'sib o'tadi. Dastlabki til- old tilni shartli ravishda "nutq - kurash" deb, verbal tilni esa "nutq – muloqot " deb atash mumkin... "Nutq - kurash" bir lahzali, tasodifiylik bilan bog'liq bo'lsa, "nutq – muloqot " ko'p lahzalidir[9,36].

Bundan ma'lum bo'ladi, ijtimiiy hodisa sifatida til sistemasining struktural elementi deb qaraladigan tovush dastlab his-tuyg'u, insonning turli emotsiyal holatlarini ifodalovchi vosita bo'lib, nisbatan torroq funksiya bajargan. Bu narsa xozirgi zamon rivojlangan tillarida to'la saqlangan. Til ayni shu jihat bilan inson ruhiyatidagi barcha psixologik jarayonlarda ishtirok etadi, ana shu jarayonlarni yuzaga chiqarish vositasi sifatida funksiya bajaradi – rudiment o'chgan emas, aksincha yanada boyigan va faollandashgan.

Yuqoridagi qarash va nazariyalar bo'yicha gapiresh mexanizmi, shu mexanizmni vujudga keltiruvchi va tashkil etuvchilari sifatida psixologik va fiziologik omillarga asosiy e'tibor qaratilgan. Fiziologik omil harakatlanuvchi apparatni sozlaydi, shakllantiradi, u tovushni bir xillikdan chiqaradi, uning sotsial funksiya bajarishi uchun xizmat qiladi, psixologik omil esa, ana shu apparatni harakatga keltiradi – harakatlantiruvchi omil. Har ikkisi birgalikda tilni "ishlab chiqaradi". "His-tuyg'u ifodalashning tovush vositalari bora-bora narsalar, ularning xususiyatlari hamda munosabatlarini anglatuvchi vosita sifatida shakllanib boradilar, oldindan o'ylab qo'yilgan xabar-axborot berish funksiyasini boshlaydilar"[10,816].

Inson tili bir yoqlama bo'lib, faqat kommunikativ funksiya maydonida qolib ketmaydi, u hayvon va qushlar "tili" dan farq qiladi, bu til haqida gapirliganda,.... hayvonlar "tili" qanchalar qulay bo'lmasin, faqat kommunikatsiya vositasidir; inson tili olamni bilish va shuning bilan birga, kishilararo muloqot mexanizmidir[11,185]. Inson tili uning "ruhiy qudratini doimiy faoliyatga yo'naltiruvchi hodisalardan biridir"[12,52], – tipidagi to'xtamlarga kelish imkonи vujudga keladi.

Shunday qilib, insonlar orasidagi munosabatlarning signal vositasi bo'lgan tovush tovushli til uchun asos bo'lib xizmat qilish orqali, ashyoviy tilga o'sib o'tadi. Bu evolyusiyada murojaat yetakchi rol o'ynaydi. Mana shu murojaat maydonidagi ehtiyojning tinimsiz kengayib birishi tufayli tilning ong va tafakkur bilan o'zaro aloqadorlik va shartlanganligi, funksiyasi ham birgalikda kengayib, chuqur mazmuniylik kasb etib boradi. Inson ongida aks etgan butun borliqni – ob'ektiv reallikning to'plovchisi, jamlovchisi, qayd etuvchisi darajasida shakllanadi. Bu jarayonda uning o'zi ikkinchi borliqqa – birinchi borliqni o'zida umumlashtirib ifodalovchi vositaga aylanadi. Bu haqda A.G.Spirkin hamda V.V.Martinovlar xulosalariga munosabat bildirib, Ye.N.Panov shunday yozadi:

"Faqat til tufayli inson yakka predmet va xodisalar bilimidan ularning tushuncha shaklidagi umumlashgan in'ikosiga o'tish imkoniga ega bo'ladi". Borliq haqidagi barcha bilimlar inson xotirasi va tilida yashaydi ... lingvist V.V.Martinov tilni bizni o'rabi turuvchi tashqi reallik bo'lgan "1-Borliq"dan farqli ravishda "2-Borliq " deb juda topib nomlagan[13,31]

Til va ongning o'zaro aloqasi haqida fikr yuritar ekan, V.F.Petrenko ham A.R.Luriyaning yuqoridagiga hamohang bo'lgan fikrini tasdiqlaydi va uning "Til va ong" kitobidan quyidagi ko'chirmani keltiradi: "Rivojlangan tilga ega bo'lgan insonning g'oyat katta yutug'i shundan iboratki, borliq ikkilanadi. Predmetlarni ko'rsatib turuvchi til yordamida bevosita idrok etilmaydigan predmetlar bilan aloqada bo'la oladi... Inson predmetlar dunyosi ham, qiyofalar, ob'ektlar dunyosi ham bevosita aks etadigan dunyo, so'z bilan ifodalanadigan munosabat va belgilari dunyosi kiradigan ikkinchi dunyoga ega bo'ladi..."[14]

ILMIY AXBOROT

Shu ma'noda til inson ongli faoliyati va tafakkurining bir elementidir, u ma'lumotlar to'plovchi, jamlovchi, birinchi borliqni aks ettiruvchi bir butun sistemadan iborat bo'lish bilan birga, ham intellektual ham ruhiy-ma'naviy olam yaralishida ishtirok etadi[15,65]. Tafakkur faoliyati tufayli qaytadan ruhiy-manaviy dunyo sifatida yaratilgan moddiy dunyo inson ongida tildagi materiya sifatida mavjud bo'ladi va yashaydi, til "narsa va hodisalar dunyosining materialini fikr shaklida qayta quyadi"[16,54], ayni shu xususiyati tufayli Ye.N.Panov va V.F.Petrenkolar tomonidan tasdiqlangan V.V.Martinov hamda A.R.Luriyalar belgilaganidek ikkinchi borliqqa aylanadi. Ikkinci borliq bo'lmish tilning paydo bo'lishi bo'yicha qarashlar bir xil emasligi, turli davrlarda turlicha bo'lganligiga qaramasdan, munosabat, o'zgaga munosabat ifodalanishi o'zgarmay qola bergen.

Tilshunoslik tarixida shunday davrlar ham bo'lganki, tilning bosh vazifasi hisoblab kelingan kommunikativ funksiya ikkinchi planga surilib, uning mohiyati bu vazifadan kelib chiqib qaralmagan. "Eng yangi tilshunoslikning asoschilaridan biri V.Gumboldt uchun til "jamiyatdagi odamlar munosabatining tashqi vositasi" sifatida emas, balki dunyoni bilish vositasi, "ular (kishilar) ning aql kuchlari va dunyoqarashlari vujudga kelish taraqqiyotining " vositasi sifatida paydo bo'ladi[17,6].

Ko'rindiki, tilda aql va dunyoqarashni vujudga keltiruvchi, shakllantiruvchi taassurotlar aks etadi. Shu manoda "til insonning turli sezgilarini orqali idrok qilingan taassurotlarining ongli ravishda tovushlar orqali ifodalanishidir"[18,344] .

Bu taassurotlarning yuzaga kelishida sotsial va psixologik omillar katta rol o'ynaydi. Mana shu jihatdan, harakatdagi til – nutqqa, konkret so'z va matnga subektiv – psixologik planda yondashish bo'yicha Ye.M.Verežagin va V.G.Kostomorovlar Vilgelm Dilteyning quyidagi fikrini keltiradilar: "Til, mif, adabiyot va sanatda, barcha tarixiy harakatlarda biz ko'z o'ngimizda gavdalantirilgan psixik hayotni ko'ramiz"[19,275]. Taassurotlar o'z aksini topgan "so'z bilimlarni faqat tashuvchisigina emas, balki manbasi"[19,277] hamdir.

Demak, tilda faqat birinchi borliq – ob'ektiv moddiy dunyogina emas, psixik hayot ham qiyofalanadi va yashaydi.

Til, ijtimoiy hodisa sifatida, inson ongi, tafakkuri bilan zinch aloqadorlikda, bog'langanlikda yashaydi. Bu bog'lanish shartlangan bog'lanish bo'lib, ulardan biri mavjud bo'lishi va yashashi uchun ikkinchisining bo'lishi mutlaqo zaruriyatdir. Masalan, nutqda qo'llanadigan nutqiy birliklar til faktiga aylanishida lisoniy ong, lisoniy anglash mazmuniga ega bo'lgan tafakkur ishtirok etadi. Juhon tillaridagi so'zning ko'p ma'noliligi ayni shu tafakkur shaklining mahsulidir. "Umumiyl ijtimoiy faoliyatda ishlangan, eng muhim belgilari qayd etilgan ob'ektning sub'ekt ongidagi umumlashgan ideali modeli"[21,14], sifatida mano birdan ortiq bo'lganda ham, bir qolipda, bir "surat" dagi tovush kompleksiga sig'a olishi va yashashi lingvokreativ tafakkur tufayli mumkin bo'ladi.

Tilning leksik sathidagi polisemantizm, birinchidan, yangi fikr ifodalash uchun tovush qo'shilmalari yaratishning ma'lum ma'noda chegaralanganligi tufaylidir, ikkinchidan, Sh.Ballita'kidlaganidek, insonning tayyor narsadan foydalanishga moyilligi va so'z-suratlarning yetishmasligidadir[22,221]. Shu o'rinda aytish joizki, bu bilan tilda tejamkorlik ham bo'ladi – bir necha millionlab so'z emas, minglab so'zlarda tushuncha ifodalash mumkin bo'ladi. Shunday qilib, yangi ma'noga ega bo'lgan hissiy obrazlar inson ongini shakllantiruvchi ma'no[23,94] sifatida oldindan o'z ma'nosini va shakliga ega bo'lgan tovush kompleksiga yuklana beradi. Bunda assotsiativ tafakkur yetakchi o'rin egallaydi, chunki manolar o'zining bog'lanishlariga ega bo'ladi. Shu jihatdan qaralganda, "til leksikasi, malum bir qismi o'zining obrazli asosidan uzilib, bilinmas holga kelgan metaforalar yig'indisidan boshqa narsa emas".

XULOSA

«Tilning» vujudga kelishi insoniyatning ichki ehtiyoji bilan shartlangan» "...inson qayerda paydo bo'lmisin, insonligicha qolar, u boshqa o'zi singarilar bilan muloqotga kirishar, institutlar tashkil etar va qonunlar yaratish" ekan, bularning hammasida muloqotga bo'lgan ehtiyoj sifatida murojaat mavjud bo'ladi. Shuning uchun ham tilning yetakchi funksiyalari doimo murojaat bilan zinch bog'liqidir. Jumladan, tilning apellyativ funksiyasi, murojaat bilan bevosita aloqador. Tilning bu funksiyasi orqali tinglovchi-murojaat obyekti uzatilayotgan fikri qabul qilishga da'vat etiladi. O.S.Axmanova ta'kidlaganidek, apellyativ va kontakt o'rnatish fuksiyalari-tinglovchini nutqni tinglash - qabul qilishga jalb etish, berilayotgan informatsiyani qabul qilish uchun uning daqqatini o'ziga qaratish – tilning asosiy funksiyalaridan biri sifatida murojaat ifodalash uchun hizmat qiladi.

Xulosa qilib aytganda, tilning paydo bo'lish zaminida ham, signal "til"dan ashyoviy tilga tomon taraqqiy etish, tafakkur bilan birgalikda "ishlash", funksiyalarining kengayib va chuqurlashib, ko'p qirrali bo'lib borish zaminida ham, doimiy ravishdagi ehtiyoj sifatida, markaziy o'rinn egallab kelgan.

ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Андреев И.Л.Происхождение человека и общества. Москва. 1982,с.94.
2. Ахманова О.С. Словарь лингвистических терминов. Изд. «Советская энциклопедия» . 1983, с. 816
3. Балли Ш.Французская стилистика. Изд. Иностранной литературы. Москва 1961, с.221.
4. Гиясова, В. (2023). ОСОБЕННОСТИ КОМПОЗИЦИИ РУССКИХ И УЗБЕКСКИХ СКАЗОК. Science and innovation in the education system, 2(5), 125-129
5. Авазовна, Г. В. (2022). THE SOCIOLINGUISTIC NATURE OF THE ADDRESS. EPRA International Journal of Research and Development (IJRD), 7(7), 81-86.
6. Авазовна, Г.В. (2021). Классификация сказок о животных по их структурно-семантическому признаку. Преподавание языка и литературы, 1(8), 74-77.
7. Гиясова, В. (2023). ОСОБЕННОСТИ КОМПОЗИЦИИ РУССКИХ И УЗБЕКСКИХ СКАЗОК. Science and innovation in the education system, 2(5), 125-129.
8. GIYOSOVA, V. (2019). Functioning of fairy-tale as one of the variety of folklore text in oral folk art. Scientific journal of the Fergana State University, 1(6), 124-126.
9. Akbarova, Z. A., & qizi Giyosova, V. A. (2023). Extralinguistic Means Of Expressing Appeal In The Uzbek Language. Texas Journal of Philology, Culture and History, 17, 9-13.
10. Гиёсова, В. А. (2022). КОНЦЕПТ В СОВРЕМЕННОЙ ЛИНГВОКУЛЬТУРОЛОГИИ. ILM FAN TARAQQIYOTIDA ZAMONAVIY METODLARNING QO'LLANILISHI, 2(28), 161-166.
11. Гиёсова, В. А. (2022). ТОТЕМИСТИЧЕСКОЕ ПРОИСХОЖДЕНИЕ СКАЗОК О ЖИВОТНЫХ. THE ROLE OF SCIENCE AND INNOVATION IN THE MODERN WORLD, 1(1), 133-139.
12. Giyosova, V. A. (2023, October). FORMATION OF THE DICTIONARY OF PRESCHOOLCHILDREN. In International Conference on Multidisciplinary Research (Vol. 1, No. 6, pp. 103-105).
13. Giyosova V. SOCIOLINGUISTIC ANALYSIS OF REFERENCE UNITS. Farg 'ona davlat universiteti ilmiy jurnali. 2023 Feb 25(1):512-6.
14. Giyasova, V. A. (2024). HISTORY OF ADDRESS IN THE RUSSIAN LANGUAGE. Общественные науки в современном мире: теоретические и практические исследования, 3(4), 7-12.
15. Giyosova, V. (2023). GLYUTTONIMLAR BILAN IFODALANGAN BOLALARGA OID MUROJAAT BIRLIKHLARI. Scientific journal of the Fergana State University, (6), 163-163.
16. Giyosova, V. (2022). BOLALARGA OID MUROJAAT BIRLIKHLARIGA DOIR MULOHAZALAR. Scientific journal of the Fergana State University, (3), 36-36.
17. Giyosova, V. (2023). MUROJAAT BIRLIKHLARINING IJTIMOIY-LISONIY TAHLILI. Farg'ona davlat universiteti, (1), 106-106.
18. Giyosova, V. (2024). REFERENCE UNITS FOR CHILDREN WITH GLUTENOMIES. Farg'ona davlat universiteti, (3), 324-324.
19. Giyosova VA. FORMATION OF THE DICTIONARY OF PRESCHOOL CHILDREN. InInternational Conference on Multidisciplinary Research 2023 (Vol. 1, No. 6, pp. 103-105).
20. Гиёсова, В. А. (2024). ОБ ИСТОРИИ ФОРМИРОВАНИЯ ТЕРМИНА ОБРАЩЕНИЕ В РУССКОМ ЯЗЫКЕ. Педагогика и психология в современном мире: теоретические и практические исследования, 3(6), 13-17.